

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XROJIDDINOVA MUATTAR

BADIIY MATNDA KONNOTATSIYA VA PRESUPPOZITSIYA

5A111201-O'zbek tili mutaxassisligi

QO'QON – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
--------------------	----------

1-BOB. GRAMMATIK TIZIMDA KONNOTATIV

МУНОСАБАТЛАР

1.1. Morfokonnotatsiya. Atoqli otlar, olmoshlar konnotatsiyasi.....	5
1.2. Sintaktik konnotatsiyada propozitsiya va phesuppozitsiya.....	12
1.3. Badiiy-nutqiy jarayonda konnotatsiya va prezumsiya.....	17

Bob bo'yicha xulosa

2-BOB. BADIY MATNDA DENOTATIV VA KONNOTATIV

MA'NO MUNOSABATI

2.1.She'riy asarlarda konnotativlik	36
2.2.Nasriy matn tarkibida konnotatsiyalarning o'rni	47
2.3.Matn tahlilida konnotativlikka e'tibor.....	50

Bob bo'yicha xulosa

UMUMIY XULOSA.....	58
---------------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	61
---------------------------------------	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida lingvopragmatik yo'nalishdagi tadqiqot ishlarini olib borishga e'tibor yanada kuchaydi. Natijada til birliklarining semantik strukturasini tekshirish va pragmatik-konnotativ ma'nolarini chegaralash, bu ma'nolarning nutqiy reallashuvida til vositalarining o'rnini belgilash kabi qator muammolar yuzasidan qimmatli asarlar maydonga keldi. Albatta, tilshunosligimiz qo'lga kiritayotgan bu kabi yutuqlar nafaqat fanimiz, milliy qadriyatlarimiz rivojiga ham munosib hissa bo'lib ko'shildi. Zero, Yurtboshimiz qayd etganlaridek: "Istiqlol davrida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda"¹.

O'tgan asrning so'nggi yillaridan boshlab jahon tilshunosligida konnotativ ma'no ifodasi pragmatika nuqtai nazaridan maxsus o'rganila boshlandi². Biroq nutqda pragmatik-konnotativ ma'no ifodalashning o'ziga xos qonuniyatlari, uni yuzaga chiqaruvchi til vositalarining xususiyatlari turli matn ko'rinishlari misolida maxsus tekshirilgani yo'q. Jumladan, muayyan so'z san'atkorining badiiy asarda konnotativ ma'no hosil qilish uslubi va bunda uning til vositalaridan foydalanish mahorati maxsus tadqiqotlarni taqozo etadi. Ishda mana shu muammoni hal qilish bo'yicha ayrim asarlar misolidagi tahlillarni ko'rsatib o'tishga harakat qilindi. Badiiy asarlar misolida konnotativlikning ifodalanishini yoritib berish tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi masalasiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarining

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch, - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B. 86

² M.Yuldoshev. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. d-ri ... dis. avtoref. T., 2009. 40-6.

ko'lamini ancha kengaytdi. Ayniqsa, bu sohada N.Mahmudov, M.Yo'ldoshev, S.Karimovlarning³ tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Bu yo'nalishda monografik aspektda yirik tadqiqot ishlari ham yuzaga keldi. Tadqiqotimiz ob'ekti bo'lmish badiiy asarlar lingvopoetikasi muammosi ham ayrim tadqiqot ishlarida u yoki bu yo'nalishlarda o'rganilgan. Xususan, G.Keldiyorova, B.Yo'ldoshev, Q.Xalilovlarning ishlari shular jumlasidandir. Shu kunga qadar barcha badiiy asarlarning konnotativ jihati o'zbek tilshunosligida o'rganib bo'linganicha yo'q. Bundan ko'rinadiki, asarlarning konnotativ yoki pragmatik tahlili yana ko'p ishlarga asos bo'lishi mumkin.

Ishning maqsadi: Badiiy asarlar misolida konnotativ ma'noning ifodalanish usullari va vositalarini aniqlash, adiblarning til vositalaridan foydalanish mahoratini ochib berish, ularning asarlaridagi birliklarning presuppozitsion xususiyatlarini hamda pragmatik baho muammosini tadqiq etishdan iborat.

Ishning vazifalari. Tadqiqotda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutildi:

- tilshunoslikda konnotatsiya hodisasining ilmiy talqiniga munosabat bildirish va uning tadqiq darajasini belgilash;
- til birliklarining denotativ va konnotativ ma'nolari o'rtasidagi munosabatni tahlillash;
- badiiy asarlarda konnotativ ma'noni hosil qiluvchi vositalarni o'rganish;
- badiiy asarlarida konnotativ ma'noning hosil qilinishi muammosiga monografik aspektda yondashishga harakat qilindi;
- shoir va yozuvchilar asarlarida konnotativ ma'no ifodalashning lingvistik va ekstralingvistik vositalar hamkorligi aniqlandi;
- konnotativ ma'no hosil qiluvchi grammatik, leksik vositalar aniqlandi;
- badiiy matnlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan pragmatik baho masalasida presuppozitiv jihatlariga ham e'tibor berishga harakat qilindi.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Tadqiqotda o'zbek shoir va yozuvchilari asarlari, qisman so'zlashuv uslubiga xos o'rinlar tahlil ob'ekti sifatida tanlab olindi.

Karimov S.A. O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol.fanlari doktori diss... avtoref. -Toshkent, 1993, - 50 b.

Badiiy asarlar tilining konnotativ xususiyatlari esa tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Mavzuni yoritishda hozirgi kunda o'zbek tilshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlardan hamda rus va jahon tilshunosligida bayon qilingan nazariy fikrlardan, shuningdek, keyingi paytlarda keng tarqalgan matnni lingvopoetik tahlil qilish usuli hamda qiyosiy, tavsifiy, komponent taxlil, zidlash metodlaridan unumli foydalanildi.

Ish natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot yuzasidan chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalar tilshunoslikning lingvopoetika, pragmalingvistika yo'nalishlarini yangi bilimlar bilan boyitadi.

Tadqiqot materiallaridan badiiy asarlarni lingvopoetikasii tahlil qilishda, badiiy uslubiyat hamda pragmatika bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirishda, badiiy matnning lisoniy tahlili bilan bog'liq o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda, umumta'lim maktablarida keng foydalanish imkoniyatini beradi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy nazariy hajmi 60 sahifani, adabiyotlar ro'yxati bilan bilan birga 63 betni tashkil etadi.

1-bob. ГРАММАТИК ТИЗИМДА КОННОТАТИВ МУНОСАБАТЛАР

1.1. Morfokonnotatsiya. Atoqli otlar, olmoshlar konnotatsiyasi.

Kommunikativ qurilmalar tarkibidagi bir lisoniy belgining boshqa lisoniy belgi bilan munosabatini o'rganuvchi soha sintaktika hisoblansa, sintaktik qurilmalar tarkibidagi lisoniy belgilarning ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabati semantikada o'rgatilishi ta'kidlanadi.

Konnotatsiya esa nutqiy aktning bevosita matn bilan munosabatini o'rganishga qaratiladi. Ko'rinadki, nutqiy murojaat bilan matn o'rtasidagi o'zaro munosabat konnotatsiyaning asosiy o'rganish ob'ekti sanaladi.

Demak, nutqiy murojaat bilan matn o'rtasidagi munosabat juda kuchli bo'lganda, nutqiy murojaat matn bilan bog'liq holda yechilgan joyda konnotatsiyaga ehtiyoj tug'iladi. Sintaktik qurilma tarkibidagi deskriptiv so'zlar tahlili semantikaga qarab tortsa, deskriptiv bo'lmagan so'zlar tahlili konnotatsiyaga qarab tortadi⁴.

Shunday ekan, avvalo, deskriptiv va deskriptiv bo'lmagan so'zlarning mohiyati haqida fikr yuritishga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, tilshunoslikka oid nazariy adabiyotlarda olmosh so'z turkumi xususida boshqa so'z turkumlariga nisbatan noan'anaviy lisoniy qarashlar mavjud. Bunday qarashlar, albatta, olmosh turkumiga xos so'zlarning lingvistik tabiatiga bog'liq holda shakllandi. Ichi bo'sh so'zlar sifatida - ma'no qobig'i bo'sh so'zlarga olmoshlar va atoqli otlar kiritiladi. Bu jihatdan olmosh va atoqli otlar pragmatik funksiyaga ega bo'lib, matn ichida ma'lum nutq vaziyati bilan aloqador ma'no otteknkalari bilan to'ldiriladi. Aynan nutq vaziyati bilan bog'liq ma'no otteknkalari matnda pragmatik funktsiya bajarish uchun xizmat qiladi. Tabiiy ravishda savol tug'iladi. Nima uchun olmosh va atoqli otlar "ichi bo'sh"(deskriptiv) so'zlar deb qaraladi? Shuningdek, konnotatsiyaning muammosi sifatida ularning qaysi

⁴ Arutyunova N.D., Paducheva Ye.V. Istokn, proolemm i kategorii pragmatiki. V kp.: NZL. V'sh. XVI. M" 1985,s.7.

darajadagi mohiyati yoki xususiyatlari asos qilib olinadi? Bu savollarga javob topish uchun olmosh va atoqli otlarga xos mavjud nazariy qarashlarga murojaat qilish mumkin. Faqat shundagina bularni pragmatik tahlil qilish imkoni oydinlashadi. Jumladan, "Olmosh predmet yoki belgini konkret ko'rsatib bermaydi. Olmoshlarning qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanishi grammatik bog'langan nutq jarayonida konkretlashadi" . "Olmoshning ma'nosi noaniqroq, umumiyroq bo'ladi. Olmoshlar predmet, uning belgisi va miqdorini anglatmay, faqat ularni ko'rsatish, ularning mavjudligini bildirish uchun xizmat qiladi. Olmoshning qaysi so'z turkumi o'rnida kelganligi ko'pincha matndan, oldichgi gaplardan anglashiladi. Olmoshlarning ko'plari alohida olinganda juda umumiy, abstrakt xarakterga ega bo'ladi"⁵. Olmosh turkumiga xos bunday talqin "O'zbek tili grammatikasi"da ham uchraydi. Bu nazariy qo'llanmada ta'kidlanishicha, olmoshlar ma'no jihatidan boshqa mustaqil so'zlardan ma'lum darajada farq qiladi. Ular predmet, belgi va miqdor ma'nolarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalamaydi, balki boshqa predmet belgi va miqdor tushunchalari bilan bog'lanib, u yoki bu munosabatga kirishgan holda ifodalaydi. Olmoshning konkret ma'nosi matn, situatsiya - nutq jarayonida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab konkretlashadi¹. Olmosh xususidagi bu talqindan shuni aniq sezish mumkinki, boshqa so'z turkumi kabi o'zining konkret ma'nosiga ega emas. Faqat nutqiy vaziyat va matn qurshovida olmosh turkumiga xos so'zlarning ma'nosi konkretlashadi. Demak, olmoshlar o'zining leksik-semantik hamda grammatik belgilaridan tashqari yana boshqa qator xususiyatlarga egaki, bu uni tildagi yangi bir yo'nalish asosida tadqiq etish imkoniyatini yaratadi.

Olmosh so'z turkumiga xos so'zlarning eng xarakterli tomoni shundaki, garchi uning ma'no ifodalash qobig'i puch bo'lsa-da, biroq bu turkumdagi so'zlar mustaqil so'z sifatida boshqa mustaqil so'zlar qatoriga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi va mustaqil so'z tabiatiga tushadi. So'zlarni turkumlarga ajratish qoidalariga ko'ra, olmoshlar mustaqil holda savolga javob bo'ladi, o'zi alohida gap bo'lagi vazifasini bajaradi hamda mustaqil ravishda leksik ma'no ifoda

⁵ Maxmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). -Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 232 b. №5. -B.64-66.

etadi. Mana shu qolip(shablon) talablar olmoshlarni ham mustaqil soʻzlar qatorida toʻgʻri tasnif qilganligini koʻrsatadi. Biroq olmosh turkumiga xos soʻzning semantik tahlili nutq vaziyati bilan uzviy aloqador ekanligini koʻrsatadi. Demak, nutq vaziyati bilan bogʻlandimi, bunday soʻzlarni yangi tadqiq etish yoʻnalishini belgilash va ularni tildagi lingvistik oʻrnini koʻrsatishni shu kunning dolzarb vazifasi qilib qoʻyadi. Soʻzlarni turkumlarga ajratishning til sistemasi bilan bogʻliq yangicha talqini faqat matn, nutq vaziyati taʼsirida maʼnosi oydinlanuvchi soʻzlarning pragmatik xususiyatlari toʻgʻrisida fikrlash imkonini beradi. Nutq vaziyati va matn bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlarning yangicha talqin va tasnifida "Narsa va hodisalarning nomlash nuqtai nazaridan ismlar ikki darajaga boʻlinadi. 1. Birlamchi nomlar (narsa otlari, belgi otlari, miqdor otlari) va feʼllar. 2. Ikkilamchi nomlar. Ikkilamchi nomlarga atoqli otlar (antroponim, toponim, gidronim, oronim va h.k.) va olmoshlar kiradi. Bu ikki turkum borliqdagi narsa va hodisalarni bevosita nomlamaydi. Oldin nomlangan narsalarni bir-biridan ajratadi yoki ularga ishora qiladi. Bu jihatdan atoqli ot va olmoshlar atash maʼnosiga ega boʻlmagan "ichi boʻsh" soʻzlar sifatida oʻzaro umumiylikni hosil qiladi. Lekin atoqli otlar faqat narsa otlarini bir-biridan ajratish uchun qoʻllanilsa, olmoshlar barcha soʻz shakllari oʻrnida almashinib kelib, ularga ishora qilish hamda ogʻzaki va yozma matn tarkibidagi matn qismlarini bogʻlash vazifasini bajaradi"⁶. Shuning uchun ham baʼzi lingvistik adabiyotlarda olmoshning yuqoridagi boshqa soʻz turkumlaridan farqlanuvchi qirralari alohida taʼkidlangani holda, bu belgilar lingvistik planda tahlil qilinadi. Jumladan, "olmoshlar predmet, belgi yoki miqdorning aniq nomini bildirmay, ular oʻrnida qoʻllanadi. Olmoshlarning aniq maʼnosi matn vaziyati - nutq jarayonida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab konkretlashadi. Demak, matnsiz olmoshlarning maʼnosi nimani koʻrsatishi nomaʼlum boʻlib qoladi. Maʼlumki, tilshunoslik fanining uslubshunoslik yoʻnalishi soʻzlovchining individual uslubi bilan bogʻliq holda lingvistik konnotatsiyaga yaqin turadi, hatto ayrim vaqtlarda bir nutq predmeti xususidagi axborotni uslubshunoslik uchun hamda konnotatsiya uchun bir tadqiqot obʼekti sifatida tahlil qilish mumkin. Olmosh

⁶ Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent: Fan, 1992. - 296 b.

turkumiga oid so'zlarning uslubiy belgilari xususida to'xtalishning o'zi bu so'zlarni lingvopragmatik tahlil uchun yangi bir yo'l ochadi. Olmoshlarning lingvistik konnotatsiya yo'nalishi bilan bog'lanishining boshlang'ich belgilaridan biri sifatida mavhumiy ma'no ifodalashi va konkret ma'noning nutq vaziyati, matndagi namoyon bo'lishi deb qaraladi. Ammo muammoning bevosita konnotatsiya masalalari qatoriga kiritilishi, shu yo'nalish masalalari bilan shug'ullangan har qanday tadqiqotchida shubha tug'diradi. Qator matnlarni tahlil qilish natijasida olmoshning konkret ma'nosi faqat neytral ifoda imkoniyati bilan chegaralanganligining guvohi bo'linadi. Vaholanki, konnotatsiya masalalari neytral munosabat bilan birga ko'proq oshkora va yashirin, ijobiy va salbiy, qo'pol va muloyim (sotsial munosabat), baland va past (konnotatsiyaning fonosemantik aspekti - bunga ekstralingvistik faktorlarning ta'siri natijasida) munosabat shakllarini ifoda etadi. Shu ma'noda qaraladigan bo'lsa, olmoshlarga xos lingvistik tahlil faqat sotsiolingvistik etiket shakllari sifatida sof ma'nodagi pragmatik muammolar qatoridan o'rin egallashi mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

Agar lingvistik konnotatsiya masalalarining asosiy qismini his-tuyg'u semantikasi tashkil qiladi deyilgan qarash mutlaq to'g'ri bo'ladigan bo'lsa (bunday qarash asosan Kolshanskiyga taalluqli), olmosh turkumidagi so'zlar so'zlovchi sub'ektining his-tuyg'usini aks ettirish darajasi ba'zi bir so'zlarni hisobga olmaganda yo'q hisob. Shu ma'noda qaraladigan bo'lsa, olmoshlarning lingvistik konnotatsiyaga, umuman, dahli yo'qdek tuyuladi. Biroq bu turkumdagi so'zlarning matndagi funksional harakatlanish darajasi yoki ularning ifoda qilish vazifasining mavjudligi bu turkumdagi so'zlarni pragmatik tadqiq etish imkoniyati borligini ko'rsatadi. Olmoshlarni tadqiq etishda masalaning eng muhim jihati shundan iborat bo'lishi kerakki, o'zbek tiliga xos lingvistik adabiyotlardagi mavjud nazariy qarashlardan farqli ravishda olmoshga xos pragmatik xususiyatlar namoyon bo'lishi kuzatiladi. Olmosh turkumidagi so'zlarning mavhum, noaniq ma'no ifodalashini quyidagi misollarni qiyoslash asosida ko'rish mumkin:

1. Predmetning nomini bildiruvchi so'z: non, uy, daftar.
2. Predmetning belgisini bildiruvchi so'z: yaxshi, shirin, katta.

3. Predmetning miqdorini bildiruvchi so'z: bir, to'rt, uchchovlon.
4. Harakatning belgisini bildiruvchi so'z: tez, ko'p, oz, yana
5. Olmosh so'z turkumiga oid so'zlar: Biz, u, shu, nima?, hamma, o'z.

Ko'rinadiki, faqat olmoshgina nutq vaziyatini, nutq ko'rinishini talab qiladi. Olmoshda ularning ma'nosi faqat matn bilan, ijtimoiy muhit va nutq vaziyati bilan oydinlashuvi ko'zga yaqqol tashlanadi. "Sememaning tushunchalar bilan bog'liqligi faqat mustaqil leksemalardagina yuz beradi. Undov, taqlidiy so'zlarda, yordamchi leksemalarda, olmoshlarda esa bunday bog'lanishni ko'rmaymiz"⁷.

Olmoshlar shuning uchun ham sof ma'noda lingvistik konnotatsiyaning bosh masalasi sifatida talqin va tadqiq etilishi zarur. Ch.S.Pirs termini bilan aytiladigan bo'lsa, lingvistik konnotatsiyaning klassik masalalaridan biri indeksial ifodalanish yoki deyksis tushunchasidir. Ch.Morrisning tushuntirishi bo'yicha esa deyksis muammosi konnotatsiya tarkibiga kirib, deyktik elementlar mazmuni so'zning qo'llanish vaziyatiga bog'liq bo'ladi⁸. Shuning uchun ham olmosh turkumiga xos so'zlar indeksial belgilar sifatida deyktik elementlar hisoblanadi va ularga xos denotatni matnsiz aniqlab bo'lmaydi. Faqat nutqiy vaziyatni to'liq qamrab olgan nutqiy jarayon ko'rinishlarigina deyktik elementlar denotatini ochish uchun xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida ham indeksial belgi vazifasini bajaruvchi so'zlarni "havola bo'lak" atamasi bilan yuritiladi. Unda ta'kidlanishicha, "deyksis belgilarning mohiyati shundan iboratki, ular mazmunni - voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko'ra ularni mazmunan kuchsiz, bo'sh so'zlar sifatida qarash mumkin. Olmosh va nisbiy so'zlar", atoqli otlar deyksis belgilar bo'lib, matnda ular havola bo'lak sifatida vazifa bajaradi. N.Mahmudovning ta'kidlashicha, havola bo'lak o'z tabiatiga ko'ra, har qanday matnda sintaktik o'rni shaklan to'liq bo'lsa ham, mazmunan noto'liq bo'ladi. Olmoshlar ana shunday so'zlar sifatida pragmatik qimmatga ega bo'ladi. Masalan: *Bu oyimga juda yoqardi, pishiq bo'lsin, yog'ochdan boshqasini bilmaydigan otasiga o'xshamay, ro'zg'or ishlariga aralashib, ko'zi pishsin der*

⁷ Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). -Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 232 b. №5. -B.64-66.

⁸ M.Hakimov.O'zbek tili pragmalolingvistikasi asoslari. Monografiya.T.2013.

edi.(Ch.Aytmatov."Jamila").

Yuqoridagi matnda bu olmoshi sintaktik jihatdan shaklan to'liq bo'lsa-da, biroq mazmunan bo'sh so'z - havola bo'lak sifatida avvalgi matnga ishora qilish vazifasini bajaradi.

Olmoshlarga xos eng qiziq holat shundaki, ularni indeksial belgi - havola bo'lak sifatida yo'l ko'rsatuvchi so'zlar deb ham atash mumkin. Chunki bu so'zlar matn jipsligini ta'minlovchi so'zlar sanaladi. Olmoshlarda munosabatning matndagi ifodalanish darajasi - mayl, modus tushunchasi va kommunikativ niyatning semantik belgilarga xos o'ta neytral xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Bu jihatdan qaraladigan bo'lsa, olmoshlarning lingvistik konnotatsiyaga, umuman, dahli yo'qdek tuyuladi. Biroq havola bo'laklarning matndagi nutqiy vaziyatning mukammalligini saqlash vazifasi har qanday mayl, modallik va kommunikativ niyatning oshkora va yashirin ifodalanishining bosh lingvistik omili sanaladi. Shu ma'noda olmosh va atoqli otlarni konnotatsiyaning muhim muammolari sifatida talqin va tadqiq etish juda o'rinli.

Olmoshlar havola bo'lak sifatida matnda bajarayotgan vazifasiga ko'ra quyidagi tasnifiy belgilardan iborat bo'ladi.

1.Matn qismlari o'rtasidagi o'zaro sintagmatik munosabatni ta'minlaydi. Bunda matn elementlari o'rtasidagi kogerentlikni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi.

2.Matnning avvalgi qismiga ishora qilish vazifasini bajaradi. Bunda u kontekstual butunlilikni ta'minlaydi va deytik ifodalar turkumiga kiritiladi.

3.Olmoshlarning konkret ma'nosi nutq vaziyatida aniq bo'ladi.

4.Olmoshlar matnda shakliy semantika yo'nalishini yuzaga keltiradi. Shakliy semantika tushunchasi matndagi so'zning mazmunan noto'liq bo'lsa ham, shakli jihatdan barcha grammatik talablariga javob beradi. *Kutilmaganda shuni bilib qoldimki, sharoitga ko'rami, o'zimning har narsaga aralashib ketaveredigan jurnalistik kasbimga ko'rami shofyorga tanish bo'lmagan kishilar to'g'risida ancha-muncha narsa bilardim*(Ch.Aytmatov."Jamila").

Olmoshlarning birinchi darajali funksiyasi so'zlovchi, tinglovchi va

kuzatuvchi shaxs ma'nolarini ifodalash bilan xarakterlanadi. Har qanday nutqda nutq sub'ekti, nutq adresati hamda nutq predmeti xususidagi ichki semantik ottenka ko'rsatkichlari sezilib turadi. Bulardan esa shaxs ma'nolari anglashiladi. "Xabar qilinayotgan faktning propozitsiya sub'ekti sifatida so'zlovchining barcha xususiy ifoda imkoniyatida sub'ektga nutq vaziyati, matn tarkibida oydinlashadi. Ikkinchi jihat olmoshlar nutq vaziyati bilan bog'liq holda nutqiy etiket shakllaridan biri sifatida so'zlovchining tinglovchi hamda nutq ishtirokchilariga munosabatini ifoda etadi. Atoqli otlar ham o'zida leksik ma'no ifodalash va ishora qilish funksiyasini bajarish nuqtai nazaridan olmoshlarga xos nominativ qimmatga ega"⁹...Atoqli otlar logik jihatdan bu, shu, u, o'ia kabi ko'rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi. Chunki atoqli otlar ham, bunday ko'rsatish olmoshlari ham semantik jihatdan "to'q" emas, ya'ni ularning har ikkalasi ham muayyan ob'ektni bevosita ifodalamaydi, balki ayni ob'ektlarga ishora qiladi, ularni ko'rsatadi"¹⁰. Atoqli otlar ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarni bevosita nomlamaydi. Jumladan, har qanday atoqli otlar birini-ikkinchisidan farqlash ma'nosida ikkilamchi nomlanish hisoblanadi. Ob'ektiv nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, odam, kishi, inson kabi nomlar jonli zot uchun umumiy birlamchi nomlanish hisoblanadi. "Ikkilamchi nomlarga atoqli otlar kiradi... Bu jihatdan atoqli otlar... atash ma'nosiga ega bo'lmagan "ichi bo'sh" so'zlar sifatida o'zaro umumiylikni hosil qiladi, atoqli otlar faqat narsa otlarini bir-biridan ajratish uchun qo'llanadi"¹¹. Atoqli otlarning ham konkret ma'nosi matnda namoyon bo'ladi. Jumladan, ma'lum matn tarkibidagi axborotni to'g'ri bo'lishi va to'g'ri anglanishi uchun atoqli ot hisoblangan nom - odam haqidagi real ma'lumot so'zlovchiga ham tinglovchiga ham ma'lum bo'lishi lozim.

Safar ismli shaxs haqidagi barcha ma'lumot nutq ishtirokchilariga nutq momentiga qadar ma'lum bo'lishi shart.

U shu turishda, go'yo quturib oqayotgan suvga duch kelib, uni kechib o'tishini ham, o'tmasligini ham bilmay lol bo'lib turgan odamga o'xshardi(Ch.Aytmatov. "Jamila").

⁹ Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent: Fan, 1992. - 296 b.

¹⁰ Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). -Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 232 b. №5. -B.64-66.

¹¹ Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi ... diss. -Toshkent, 1994. -168 b

Xullas, olmosh va atoqli otlar narsa va hodisalarni bevosita nomlamaydi, ularga ishora qiladi. Ularning ma'nosi, birinchidan, nutq vaziyati bilan bog'liq ravishda konkretlashadi. Ikkinchidan, ma'noning konkret ifodalanishi uchun so'zlovchi va nutq ishtirokchilari aniq pragmatik bilimlarga ega bo'lishi shart.

1.2. Sintaktik konnotatsiyada propozitsiya va phesuppozitsiya

Konnotatsiya tushunchasi g'oyat keng bo'lib, u til sathlari nuqtai nazaridan iyerarxik qismlarga ham ajratilishi mumkin. Modus nazariyasi bilan uzviy bog'langan "sub'ektiv baho so'zlovchining ob'ektiv borliqqa va o'z nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining ifodalanishidir. Bu maxsus tekshirish ob'ekti"¹². So'zlovchining mavjudlikdagi voqelikka munosabatini ifoda etuvchi morfologik vositalar morfopragmatik yo'nalishni tashkil etadi. Chunki morfokonnotatsiya so'zlovchining ichki niyati bilan aloqador maqsadni tadqiq etishga qaratilgan tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biridir. Masalan, yigitcha, o'ringizdan turing-chi? jumlasida o'tkir kesatq ma'nosining mavjudligi so'zlovchi shaxs niyatini yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Shu ma'noda bunday mazmuniy shakldagi hodisalar morfopragmatik aspektda tahlil qilinadi.

Nazariy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, pragmatizatsiya deskriptiv bo'lmagan so'z ma'nolari bazasida rivojlangan bo'lsa, E.Sepir maqolalarida bu jarayonning manbasi boshqa tomondan ochiladi. Sifatlarning qiyosiy darajalanishiga oid relyasion ma'no - pragmatizatsiyaning asosi deb qaraladi¹. Ko'rinadiki, morfologik sathga oid lingvistik vositalarning so'zlovchi munosabati bilan bog'lanishining o'ziyoq morfokonnotatsiyaga yo'l ochadi. "Leksemalarning hammasida ham tushunchalar bilan bog'lanish mavjud bo'lmaydi. Bular shaklan leksema, mazmunan esa qo'shimchadir". Buning tasdig'i sifatida "sintaktik bog'lovchilar lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan yordamchilar" ekanligi xususidagi fikr ham tasdiqlangani holda muallif unga qarshi qarashni ham bayon etadiki, bu albatta to'g'ridir.

¹² Hakimov . O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi ... diss. -Toshkent, 1994. -168 b

Jumladan, "ikki yoki undan ortiq yordamchi so'zlar yonma-yon (pleonastik) qo'llanganda, ulardan biri odatda, bog'lovchi xarakteridagisi, nutqiy-pragmatik qiymat kasb etadi, natijada so'zning bog'lovchi kategoriyasiga xos grammatik vazifaviy xususiyatlari inkor etiladi".¹³

Nutq sub'ekti aniq bo'lgani holda so'zlovchi o'z ichki maqsadini nutqda bayon qilish uchun aniq nisbat o'rnida majhul nisbat shaklidan foydalanadi. Bunday usul individual o'ziga xoslikni ifoda etishda muhim o'rin tutadi. *Birov olib ketsa, qaytib kela ber deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yiglanadi? Yiglanmasin! (A.Qahhor)*¹⁴. Misol mazmunidan ko'rinadiki, so'zlovchi aniq nisbat qo'shimchasini qo'llash bilan "yiglamang" deyishi mumkin edi, lekin bunda so'zlovchining ijtimoiy ta'sir etish darajasi nutqda o'z ifodasini topmay qoladi, shuning uchun ham aniq nisbat o'rnida so'zlovchi majhul nisbat shaklidan foydalanadi.

Pragmasintaktik talqin ham sintaktik elementlarning so'zlovchining o'zi ifoda etayotgan fikriga munosabati bilan belgilanadi. Jumladan, xabar mazmunida qo'shimcha axborot ko'rinishlari aniqlik, gumon, yashirin kabi pragmatik mazmunning sintaktik vositalar yordamida ifodalanishi pragmasintaktik talqin deb yuritiladi. Masalan, *Maktabga ketdi bilan maktab tomon ketdi jumlasining mazmuni keskin farqlanadi. Lekin Uy quruvchilar tomonidan qurildi. Uyni quruvchilar qurdi. Quruvchilar uy qurdi. Otam o'qigin degan. Otam o'qigin deyapti. Otam o'qitmoqchi.* Yuqoridagi jumalarning mazmuniy tuzilishi pragmatik tahlilga muhtoj. Aktual bo'linish ham bevosita lingvistik konnotatsiya yo'nalishi bilan bog'lanadi.

Morfokonnotatsiya va pragmasintaktik talqin alohida tadqiqot ob'ekti bo'lgani uchun uni morfostilistika hamda sintaktik stilistikadan ajratish o'zbek tilshunosligining shu kundagi dolzarb muammolaridan biridir.

Fonokonnotatsiya, leksokonnotatsiya, morfokonnotatsiya va pragmasintaktika kabi atamalar tilshunoslikdagi dastlabki qo'llanishlar sanaladi.

¹³ Maxmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). -Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 232 b. №5. -B.64-66.

¹⁴ Abdulla Qahhor. O'g'ri. Hikoyalari. Tanlangan asarlar. 1G.Gulom nashriyoti. 79-b.

Sintaksis - yunoncha: "tuzilgan, qurilgan"; semantika -yunoncha: "ifodalangan, ifodalash"; konnotatsiya (pragma) - grekcha: "amalga oshirilgan, bajarilgan ish", shuningdek "harakat", "faoliyat" ma'nolarini ifoda etadi. Ch.Morris semiotikani uch qismga ajratadi: "semantika" belgilarning ular ifoda etgan narsalarga munosabatini, "sintaktika" belginng belgiga munosabatini, "konnotatsiya" esa belgining tildan foydalanuvchiga munosabati haqidagi ta'limotni o'rganadi¹⁵- deydi. Mana shu qismlarning birgalikda tahlil qilinishi nazariy grammatikaning asosi deb qaraladi. Shuning uchun ham bular hozirgi kunda sintaksisning dolzarb muammolari sifatida tadqiq etiladi. Bizningcha, konnotatsiya tushunchasi ostida lingvistik birliklarning mazmuniy jihatinigina tadqiq etish bilan chegaralanadi deyilgan noto'g'ri xulosaga kelmaslik zarur. Chunki lingvistik konnotatsiyaning tadqiqot maydoni o'ta kengligi bilan xarakterlansa-da, bu yo'nalish ob'ektini tadqiq etish hamda uni chegaralashda tadqiqotchidan o'ta ehtiyotkorlik talab qilinadi. Charlz Morris talqiniga ko'ra, tilga belgi sifatida yondashib, sintaktika, semantika, konnotatsiya yo'nalishi bo'yicha avval alohida, so'ngra umumlashgan tarzda ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Bu uch sohaning eng muhim tomoni ularni sintaktik birliklarning o'rganishi bilan umumlashishi hamda tadqiqot ob'ektini murakkablashtirishidir. Shuning uchun ham avvalo tilshunoslikning bu sohalari o'rganadigan sintaktik birliklarga xos semantik strukturalarni aniqlab olish muhimdir. Har qanday ifodaning ikki tomoni mavjud bo'ladi. So'zlovchi bayon qilgan axborotning semantik ko'rinishlaridan biri ifoda diktumi. Ikkinchisi esa axborot semantik strukturasida diktum tarkibida namoyon bo'luvchi ifoda modusidir.

A.Nurmonovning ta'kidlashicha, gapning denotativ yo'nalishini ifodalash uchun "propozitsiya" atamasidan foydalaniladi. Bu atama mantiq va falsafiy tadqiqotlar ta'sirida tilshunoslikka kirib keldi. Bu masalaga qiziqishning kuchayishi bilan uning talqinida ham xilma-xil qarashlar paydo bo'ldi.

Propozitsiya atamasi dastlab umumiy tarzda tushunilgan. Klassik mantiqda propozitsiya quyidagi tarzda tushunilgan "borliqning ma'lum predikatlari haqida

¹⁵ Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi ... diss. -Toshkent, 1994. -168 b.

tasdiq yoki inkor yo'li bilan axborot beruvchi fikr shakli tushunilgan. Bu atama dastlab hukmning ifodalanish shakli bo'lgan darak gaplarga, keyinchalik gapning hamma turlariga nisbatan qo'llandi"¹⁶. Biroq dastlab propozitsiya tushunchasi gapning mazmuniy strukturasidagi barcha mazmuniy sathlarni qamrab olgan holda qo'llana boshladi. Gapning sub'ektiv mazmuniy strukturasini ham propozitsiya ostida tadqiq etildi.

Ramziy mantiq klassik mantiqdan farqli ravishda, o'zining tushunchalarini, inson ongida aks etishini chetlab o'tgan holda bevosita borliq kategoriyalari bilan munosabatini belgilashga intiladi. Propozitsiya tushunchasining bu umumiy tendensiyasi natijasida keyinchalik u tafakkurdan ob'ektiv reallikka, sub'ektiv omilga "burildi". Natijada tafakkur shakliga emas, balki uning mazmuniga, u orqali ifodalanadigan ob'ektiv reallikka nisbatan qo'llanila boshlandi. Sub'ektiv modallik kategoriyasidan ozod bo'lib, vaziyatni ifodalashga o'tdi. Propozitsiya xuddi shu ma'nosi bilan tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda bu masala yuzasidan turlicha talqinning ortib borishi propozitsiya xususidagi qarashlarning to'g'ri va yagona ta'rifini paydo bo'lishiga asos bo'la boshladi. Demak, hozirgi kunda tilshunoslikda propozitsiya xususidagi yagona ta'rif gap semantikasida ifodalangan ob'ektiv mazmundir. Gap, matn mazmuniy strukturasidagi ob'ektiv mazmundan tashqari nutq sub'ektivining affekt belgilari qo'shilgan boshqa mazmuniy strukturaning aniqlab olish uchun propozitsiya haqida yagona ma'lumotga ega bo'lish muhimdir.

Ifoda semantik tuzilishidagi propozitsiya masalalari bilan semantika shug'ullanadi. Propozitsiya tushunchasi jumladagi asosiy axborot bo'lib, so'zlovchi voqelikni bayon qilishda tildan foydalanadi. Tildan ma'lum maqsad yo'lida foydalanish davomida unda ma'lum bir voqelikning aks etishi propozitsiya hisoblanadi. Propozitsiya mavjudlikdagi voqelikni haqiqiylik sharti asosida namoyon bo'lgan tildagi mavhumiy mohiyatdir. Demak, nutq predmeti haqidagi

¹⁶ Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent: Fan, 1992. - 296 b.

asosiy axborot jumla propozitsiyasini tashkil qiladi. Masalan:

- *Bu safar biz stansiyaga ancha barvaqt yetib keldik, lekin otlarimiz qora terga tushib ketgan edi. (Ch.Aytmatov).* Bu matndagi oddiy tasdiq akti xususidagi xabar mazmuni propozitsiyadir. Semantika mana shu masalalar bilan shug'ullanadi. R.S.Stolneyker ta'kidlashicha, formal semantika so'zlovchi niyati hisobga olinmagan gapdagi rostlik shartining tasviridir. Bunday tahlilda jumla tarkibida so'zlovchining ichki niyati haqidagi bayon hisobga olinmaydi, unda axborotning asosiy ko'rinishi inobatga olinadi. So'zlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatni ifodalovchi aktlar tahlil ob'ektidan chetga chiqadi. Jumla mazmuni mantiqiy jihatdan to'g'ri ekanligi nazarda tutiladi. "*Yomg'ir yog'yapti*" jumlasida so'zlovchi faqat yomg'ir yog'ayotganligi haqida axborot berish bilan chegaralanadi. So'zlovchi nutqiga xos uning sub'ektiv qarashlarining yashirin ifodasi - "biror yoqqa borolmaslik", "va'dani bajarish imkoniyatining yo'qligi"¹⁷ yoki ochiq bayonda mantiqiy zid mazmun - "yomzir yog'yapti - qor yovishi kerak edi" kabi illokutiv jarayon semantik tahlilni murakkablashtiradi. Ko'rinadiki, jumla bilan propozitsiya o'rtasidagi munosabat nutq sub'ekti bilan bog'liq tarzda matn hamda nutqiy vaziyat yordamida aniqlanadigan bo'lsa, u holda bu propozitsiya bilan aloqador hodisalar lingvistik konnotatsiya predmeti mundarijasiga taalluqli bo'ladi. Semantika jumladagi propozitsiya - mavjudlikdagi voqelik xususida ma'lumot berib, uni nazariy jihatdan tahlil qiladi.

Shakliy semantika matndagi propozitsional mazmunga xos ma'no ottenkalari bilan shug'ullanadi. Nutq ob'ektining ichki niyati bilan aloqador bo'lgan nutq vaziyati ta'sirida ifodalanuvchi ob'ekti sanaladi. Propozitsiyalar asosan neytral xarakter kasb etadi. "Gap mazmuni propozitsiyani tashkil qiladi. K.Lyuis fikriga ko'ra, Dj. Serl' propozitsiyani tasdiq funksiyasidan keskin farqlaydi. Propozitsiya bu tasdiq aktidagi xabardir. Tasdiq propozitsiyadan farqli ravishda propozitsiyaning

¹⁷ Arutyunova N.D. Predlojeniya i sm'gsl. M., 1976, s.50.

¹⁸Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent: Fan, 1992. - 296 b.

haqiqiyliги xususidagi ma'noni o'zida namoyon etgan nutqiy aktdir"¹⁸. So'zlovchi bu propozitsiyalardan biror maqsad yo'lida foydalanadi. Ifodaning ana shunday qo'llash jarayonidan boshlab individual uslub tushunchasi namoyon bo'ladi. So'zlovchi tinglovchiga ta'sir etish maqsadida mavjud propozitsional uslubiy andozalardan nutq vaziyati uchun xarakterli bo'lgan optimal variantini tanlab oladi. Misol tariqasida bir xil mazmuniy propozitsiyaga ega bo'lgan ikki jumlani navbati bilan tahlil qilamiz: *Podshohim, qarindoshlaringiz sizdan avval dunyodan o'tadilar. (Qobusnoma).*

Bu jumlada quyidagi ikki propozitsiya mavjud: a) qarindoshlar umrining qisqa bo'lishi haqidagi propozitsiya (aktuallashgan mazmuniy qator);

b) podshohning uzoq umr ko'rishi haqidagi propozitsiya (noaktuallashgan mazmuniy qator) ¹⁹. Bu jumla semantik strukturasiga yuzaki qaralganda, faqat semantikaning tadqiqot ob'ektiga kiradigandek tuyuladi. Biroq mavjud propozitsiyalardan biri so'zlovchi maqsadini yuzaga chiqarish uchun qo'llanishi bilan lingvistik konnotatsiyaning tadqiqot ob'ekti ekanligi tasdiqlanadi. Jumlaning shakliy strukturasida o'zgartirilishi bilan funksional uslubga taalluqli individual uslub yo'nalishi lingvistik konnotatsiyaning o'rganish ob'ekti bilan uyg'unlashadi.

1.3. Badiiy-nutqiy jarayonda konnotatsiya va prezumsiya.

Matnda so'zlovchi nazarda tutgan axborot har doim ham verbal ifoda tarkibida to'liq ma'noda oshkora bayonga ega bo'lavermaydi. Ko'pincha, oshkora bayon qilinmagan, ammo so'zlovchi ichki maqsadi aks etgan yashirin mazmun ko'rinishlarini matn mazmuniy strukturasidan ilg'ab olish tinglovchi, nutq ishtirokchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. Buning uchun so'zlovchi, tinglovchi hamda nutq ishtirokchilari nutq vaziyati va sotsial matndan to'liq xabardor bo'lish

¹⁹ Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent: Fan, 1992. - 296 b.

²⁰ Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent: Fan, 1992. - 296 b.

bilan birga, verbal ifodaning mazmuniy tuzilishidagi nozik ifoda qirralarini anglash uchun o'sha tilga xos ma'no ottenkalarini bilishi shart.

Ma'lumki, har qanday matnda axborot so'zlovchining ichki maqsadi boshqaruvida ikki mazmuniy ko'rinishdan iborat bo'ladi. Bular yoyiq va yig'iq mazmun shakllaridir. Bunday mazmun shakllari so'zlovchining kommunikativ niyati bilan bog'liq ravishda matnning u yoki bu qismlarida namoyon bo'ladi. Axborot bayon etishning yoyiq shakllariga xos ifoda imkoniyatlari xilma-xil bo'lganidek, yig'iq yashirin ifoda usullari ham turlichadir. Yig'iq-yashirin axborot matnlari turlicha shakllardan iborat bo'lganligi uchun unga nisbatan lingvistikaga oid nazariy adabiyotlarda "bir umumiy tushunchani ifoda etuvchi umumyashirin ("implikatsiya") atamasini qo'llaydilar. Bu atama asli mantiqshunoslik yo'nalishi bilan bog'liq bo'lib, nolingvistik kategoriya sifatida namoyon bo'lgan"²⁰. Keyinchalik esa tilda konnotatsiya yo'nalishining yangi tarmoq sifatida shakllanishi bilan umumyashirin (implikatsiya) va unga yondosh bo'lgan atamalar o'z lingvistik maqomiga ega bo'la boshladi. Tilda bunday xilma-xil atamalarining paydo bo'lishi ijobiy hodisa sifatida tadqiqotchidan ularga xos aniq ta'riflar berishni talab qiladi.

Yirik tilshunos olim I.V. Arnol'd yashirin axborot ko'rinishlarini uslubiy aspektda tadqiq va talqin etadi. Uningcha, verbal ifoda vositasi bilan aytib ulgurilmagan va so'zlovchi tomonidan ishora qilingan yashirin ma'nolar stilistik ob'ekt sifatida qaralishi shart. Umumyashirin mazmun ko'rinishlariga xos bunday qarash bizni qoniqtirmaydi. Bizningcha, yashirin ma'noning ifoda imkoniyatlari to'liq ma'noda so'zlovchining xususiy xohishiga ko'ra namoyon bo'lishining o'zi bu yo'nalish sof ma'noda lingvistik konnotatsiyaning ob'ekti deb qaralsagina, mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

Umumyashirin atamasi lingvistik tushuncha sifatida bayon qilingan yashirin ma'noning barchasini qamrab oluvchi mazmunni anglatadi. Ta'rifdan anglashiladiki, yashirin ma'no ko'rinishi faqat bir shakldan iborat bo'lib qolmasdan, u bir necha ko'rinishlardan iborat bo'ladi. Umumyashirin atamasining lug'aviy

ma'nosi matnda verbal ifodalab bo'lmaydigan yoki verbal bayon maromiga yetmagan holatda so'zlovchi ishora qilgan va tinglovchi anglab olishi lozim bo'lgan noshakliy mazmun ko'rinishidir. Bunday noshakliy ifoda ko'rinishlari, albatta, so'zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog'liq ravishda nutqiy vaziyat ta'sirida namoyon bo'ladi.

Umumyashirinlik matnda verbal bayonga ega bo'lmagan, ammo adresat tomonidan ziyraklik bilan anglab olinuvchi mazmundir. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish qanday tarzda yoritilgan, qanday nazariy ishlar amalga oshirilgan? deyilganda, bu savol ochiq qoladi. O'zbek tilida yashirin mazmun ko'rinishlari alohida dissertatsion planda tadqiq etilmagan, hatto bu masalaga oid tezis yoki maqolalarga ham ko'p deb bo'lmaydi. Presuppozitsiya bilan bog'liq anchagina ishlar amalga oshirilgan, biroq klassik adabiyot namunalari kuzatilganda, bu yo'nalishga oid faktik materiallarga nihoyatda boy ekanligimizning guvohi bo'lindi. Hatto klassik adabiyotning nazariy yo'nalishiga oid juda ko'p asarlarda "yoyiq" va "yig'iq" atamalarining mumtoz shakllari mavjud ekanligi, bularning mumtoz adabiyotda "botiniy" va "zohiriy" atamalar bilan nomlanishi o'zbek tilida yoyiq va yig'iq mazmun ko'rinishlarini tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangani mutlaqo to'g'riligini ko'rsatadi.

Yuzaki qaralganda, matnda ifodalangan axborotning yoyiq va yig'iq ko'rinishlarga ajratishning nima hojati bor? mazmunidagi savolning tug'ilishi tabiiy. Albatta, bu hayotiy talab, ehtiyoj va zaruriyat ta'sirida yuzaga keladi. Nutq vaziyati so'zlovchidan har qanday axborotni ham oshkora ifodalashga yo'l qo'ymaydi. Buning uchun albatta so'zlovchi har qanday vaziyatda fikr ifodalashga tayyor turishi kerak. Ba'zan nutq vaziyati yoki ijtimoiy muhit verbal ifodada oshkora tasvirga yo'l qo'yavermaydi. Hazrat Navoiy va Husayn Boyqaro o'rtasidagi quyidagi rivoyat yashirin mazmuniy ifodaning verbal matn tarkibiga qanday sig'dirilganligining klassik namunasi hisoblanadi: *Husayn Boyqaroning rafiqasi og'ir kasalga duchor bo'lib, bir yil yotadi. Oqibat o'lim to'shagida yotganda Boyqaro vazirlariga tayinlaydi:*

- Men falon joyga shikorga ketaman. Kim mening izimdan xotiningiz o'ldi, deb borsa, o'sha kishini o'ldiraman.

Husayn ketgach, uch kundan keyin xotini vafot etadi. Vazirlar xotinni ko'mish uchun, albatta, Boyqaroga xabar berish zarurligini bilsalar-da, o'z jonlaridan qo'rqib, sarosimaga tushadilar. Bu voqeaii Husaynning do'sti va maktabdoshi Alisherga yetkazadilar. Alisher xotin o'lish oldidan qayerda yotganini surishtiradi.

Xabarchi esa, malika sarv daraxtining tagida yotib jon berganini aytadi. Navoiy darhol bir misra she'rni qozozga bitib, o'sha kishining qo'liga tutqazadi:

Sarv gulning soyasida so'ldi gul, netmoq kerak?

Xabarchi ushbu bir misra she'r yozilgan qovozni olib, darhol Husayn Boyqaro yoniga o'tlanadi. Husayn qog'ozni olib o'qiydi va bunga javoban yana bir misra she'r bitib beradi:

Sarvdin tobut yasab guldin kafan etmoq kerak. Uni choparga tutqazdi. Chopar yetib kelgach, marhuma Husayn aytgaiddek, o'z qoidasi bilan ko'miladi.²¹

Yuqoridagi misra mazmunidan ko'rinadiki, so'zlovchi nutq predmeti haqidagi axborotni yashirin, aniqrog'i, tagma'no shakl vositasi bilan ifodalaydi. Demak, nutq vaziyati verbal ifodada oshkora tasvirni qat'iy inkor etadi. Bu matnda tagma'no evfemistik usul bilan amalga oshiriladi. Shu o'rinda evfemizmlar bilan umumyashirin ma'no ko'rinishlarini farqlash muhimdir. Evfemizmlar yashirin ma'nodan farqli ravishda til hodisasi sanaladi. Evfemistik lug'aviy qatlam kishilar xotirasida saqlanadi. "Evfemistik so'z va iboralar vaqt o'tishi bilan matsiz ham o'z ma'nolarida tushunaveradigan bo'lib qolishi mumkin". Yashirin ma'no esa nutq hodisasi sanaladi. Evfemizmlar faqat ijobiy munosabatni ifodalashi bilan ajralib turadi. Umumyashirin mazmun ko'rinishlari esa nutqiy hodisa sifatida so'zlovchining har qanday niyatini yashirin ifodalash uchun xizmat qiladi. Evfemizmlar tilda mavjud so'zlarning sinonimlaridir. Ba'zi tilshunoslar evfemizmlarni stilistikaning ob'ekti sifatida to'g'ri talqin qiladilar. Ularning ta'kidlashicha, "evfemizmlar to'la ma'noda stilistikaning elementidir". Bu juda

²¹ Oybek.Navoiy. "Sharq" matbaa konserni. 1995 y. 159-b

to'g'ri, evfemizmgga bunday qarashning davomi yana tilshunoslikning qandaydir sohasiga murojaat qilish uchun ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, "...U (evfemizm) orqali inson ruhiyati, o'zaro munosabati, bir-biriga bo'lgan e'zoi, hurmati, takallufi aks etadi. Aytish mumkinki, unda xalqning milliy ruhi, etik va estetik didi, odobi va nazokati mujassamlangandir, chunki evfemizmlar inson hayoti, turmushi, fizik-biologik holatlari va muomala madaniyatiga aloqador tushunchalarni ifodalaydi". Ko'rinadiki, evfemizm bilan yashirin ma'no o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni ko'rsatishning o'zi hamda evfemizmlarning verbal ifodada ijobiy munosabatning ifodalashi kabi masalalar sof ma'noda lingvistik konnotatsiya muammolaridir.

Umuman, yashirin mazmun ifodalash shakllari turlicha ko'rinishlardan iborat bo'lganligi uchun ularni dastlab ikki guruhga ajratib olish muhim sanaladi.

1. Umumiy yashirin ma'nolar.
2. Xususiy yashirin ma'nolar.

Umumiy yashirin ma'nolar so'zlovchi, tinglovchi va barcha nutq ishtirokchilari anglab olishi mumkin bo'lgan yashirin ma'nolardir. Bularga ibora, replika, matal, maqol, topishmoq va shu kabilar kiradi. Bunday matnlar orqali ifodalangan tagma'nolar har qanday nutq ishtirokchisi uchun ma'lum bo'lishlik belgisi bilan xarakterlanadi. Yashirin ma'noning har qanday sintaktik birliklardagi noverbal mazmuniy imkoniyatlari ko'p hollarda matnning janr xususiyatlari bilan bog'lanadi. Umumiy yashirin ma'no ko'rinishlari paremiologik janrga xos matnlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Bunday matnlar tor verbal sintaktik shakl sifatida so'zlovchi nazarda tutgan yashirin ma'noni ifodalash uchun keng mazmuniy imkoniyatga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan: *"Ahmoqqa Quva bir tosh"*, *"Ahmoq kalla oyoqqa tinchlik bermaydi"*, *"Ko'z bo'lmasa, peshana"* kabi ibora tipidagi matnning mazmuniy tuzilishida umumiyashirin mazmun ko'rinishlari aks etadi. Bu yashirin komponent "Ming harakat qilmagin, barchasi bekor" mazmunidagi yashirin ma'nodan iborat bo'lib, uning mohiyati aqlsiz kishilarning masofani, vaqtni idrok qila olmasliklari hamda kuch-quvvatni

maqsadsiz sarf qilishi xususidagi ma'no bilan mantiqan bog'lanadi. Tilshunos olim B. Yo'ldoshevning ibora xususidagi qarashlari fikrimizni tasdiqlaydi. "Frazeologik birliklar so'zlardan farqli holda ob'ektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birlikning asosiy qismi ma'no jihatidan insonga qaratilgan: ular kishini biror fizik, ruhiy, axloqiy, intellektual xususiyatini, xatti-harakatini baholaydi. Shu sababli frazeologik birliklarning ma'no tarkibida, ko'pincha, konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik birlikning denotativ ma'nosiga emotsional-ekspressivlik yuklaydi" ²².

Maqollar ham umumyashirin ma'no ko'rinishlarini yuzaga chiqaruvchi maxsus matnlar sifatida ajratiladi. Bularda ham so'zlovchi nazarda tutgan umumyashirin ma'no shakllari o'ziga xos tarzda bayon qilinadi. Masalan, "Osmon yiroq, yer qattiq". Ushbu matndagi yashirin ma'no "Hech narsaning iloji yo'q" mazmuni bilan namoyon bo'lib, bunday matnlar vositasi bilan oshkora tasvirning inkor etilsa-da, biroq bu yashirin mazmun hamma nutq ishtirokchisiga tushunarli bo'lgani uchun umumyashirin ma'no deb ajratiladi. Bunday tipdagi yashirin ma'no ifodalovchi maqol matnlariga: "Otning o'limi, itniig bayrami", "Ola qarga qaz etadi, O'z vaqtini chog etadi", "Ko'rpanga qarab oyoq uzat" kabilarni kiritish mumkin. Bu matnlarga xos umumyashirin ma'no hamma uchun tushunarli bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Alibekka ham qoyilman: o'ylab ko'rish, tayyorllanish, sinab ko'rish kerekmish! U hamisha sunsqa aqlli, ehtiyotkor! Ammo men uchun bular bir pul! Men bu ishni xamirdan qil sug'urgandek bajarib, kimligimni ko'rsatib qo'yaman! (Ch.Aytmatov "Jamila")²³

Maqollarga xos umumyashirin ma'no bilan elipssis hodisasini farqlash lozim.

Umumyashirin mazmun elipssisdan matn chegarasining kengligi bilan farqlanib, matnda qo'shimcha axborot ifodalashi bilan ajralib turadi, bu vaqtda

²² Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. diss. avtoref. -Toshkent, 1993. -49 b.

²³ Ch.Aytmatov.. Erta kelgan turnalar. Фафур Фулом nomidagi adabiyot va san'at нашриёти. 1982 .105-b.

elipssis faqat kompressiya beradi, xolos, shuning bilan birga elipssisni tor shakliy sintaktik birlik sifatida qayta verbal tiklash imkoniyati mavjud.

- *tormozing joyidami? - deb so'radim shofyordan.*

- *ana xolos ... tormozsiz yurib bo'ladimi! Motor ishlamayapti deyapman-ku senga!..(Ch.Aytmatov. "Jamila")*

Bu mazmuniy mundarijaga va hatto so'zlovchining ichki maqsadiga ta'sir qilmaydi. Matniy umumyashirin mazmunni verbal tiklashning imkoniyati bo'lmaydi, chunki so'zlovchi nazarda tutgan mazmunni atayin yashirin ifodalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'ladi.

Demak, matniy yashirin ma'no nutqiy vaziyatni ham qamrab olishi bilan xarakterlanuvchi verbal tasvirni inkor etuvchi keng sotsial matndir. Elipssisda obrazlilik bo'lmaydi, yashirin ma'noda obrazlilik birinchi planda turadi. Obrazlilikning aks etish nuqtai nazaridan o'zida yashirin ma'noni to'lig'icha ifoda etuvchi topishmoq janriga xos matnlarda "insonni o'rab olgan narsa, voqea hamda hodisalar haqida ko'chma ma'noda so'z yuritilib, jumboq yaratiladi va tinglovchidan ana shu jumboqqa javob talab qilinadi". Demak, bu janrga xos matnlarda barcha so'zlarning asosan ko'chma ma'noda qo'llanishi obrazlilikni kuchaytiradi: Masalan:

Bu na gumbazdur eshigi tuynugidan yo'q nishon,

Necha gulgun-po'sh qizlar manzil aylabdur makon.

Sindurub gumbazni qizlar holidin olsam xabar,

Yuzlariga parda tortig'liq turarlar bag'ri qon. (Uvaysiy)²⁴

Bunday janrga xos matnlarda so'zlovchi ma'lum bir predmetga xos umumiy belgilarni obrazli vositalar yordamida tasvirlaydi, asosiy maqsad esa jumboq sifatida tinglovchi tomonidan topish talab qilinadigan predmetning haqiqiy ma'nosi pragmadiktal tasvir ostiga beriladi. Demak, maqolda ham, matalda ham ma'lum ma'noda nutq vaziyati bilan bog'liq ravishda umumyashirin ma'no bayon qilinadi, topishmoqlarga xos matnlarda esa matndagi diktal mazmunning o'zi faqat yashirin

²⁴7-sinf Adabiyot darsligi..Q.Yo'ldoshev va boshqalar.Увайсий газаллари 2017 y..228-b.

ma'no tasviri uchun xizmat qiladi. Umumyashirin mazmun verbal shaklning tagma'no usuliga aylantiriladi yoki noverbal ifoda va uning gavda harakatlari bilan bog'liq ko'rinishi orqali yuzaga chiqariladi.

So'zlovchi nutq predmeti haqidagi axborotni til belgilari yig'indisi yordamida yuzaga chiqaradi. Bu ifoda semantik tuzilishidagi oddiy xabar mazmunini tashkil etadi. Oshkora shakl, asosan, ifoda diktumidan iborat bo'ladi. Diktum mohiyati propozitsiya mazmuni bilan yana ham o'zining aniq ma'nosiga ega bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi xususiy munosabat propozitsional mazmun asosidagi diktumning qurshovida bayon qilinadi va ba'zida bunday ifodalar yashirin mazmun ko'rinishi sifatida matn ichiga joylashtiriladi. "Matn ichidagi matn" tushunchasi rus tilshunosligida "podtekst" atamasi bilan nomlanadi. Podtekst atamasi matn, matn va nutq atamalari ifodalagan tushunchalar mazmuni bilan bog'lana olmaydi, ularning varianti sifatida ham qo'llanmaydi. "Podtekst" atamasi ifodalagan tushuncha mazmuni matn ichidagi "yashirin matn" ma'nosidan iboratdir.

Bu hodisa kommunikatsiya ishtirokchilarining nutqiy faoliyati, individual uslubi va shaxsning ichki his-tuyg'usi bilan uzviy bog'liqdir. "Yashirin matn" tushunchasini aniq anglash va to'g'ri tushunish maqsadida biz uni "tagma'no" atamasi bilan nomlanishini majburlanib deb hisoblaymiz. Tagma'no yashirin ifoda birliklaridan biri bo'lib, u o'zining yuqoridagi belgi xususiyatlari bilan lingvistik konnotatsiyaning markaziy masalalaridan biri deb qaraladi.

Tagma'no, ko'pincha, propozitsiya vositasida bayon qilinib, faqat ba'zi holatlardagina propozitsiyadan keyin muallif izohi sifatida oshkora verbal bayonga ega bo'ladi. Masalan: *Kech kirib qolgan edi. Faqat dispetcherxonada chiroq yonib turardi. Men to'xtab qoldim: e, dispetcher-chi. Dispetcherhammasini to'g'rilab berishi mumkin-ku! Hamma ish uning qo'lida. Men dispetcherxona tomon shoshildim. Camamda bugun Hadicha navbatchilik qilayotgan bo'lsa kerak. Shunday bo'lsa yana yaxshi. U mening iltimosimni rad etmaydi. Rad etishi ham mumkin emas. Rad etgan taqdirda ham jinoyat qilmoqchi emasman-ku. Aksincha, u hamma uchun foydali? Hamma uchun muhim bo'lgan ishni amalga oshirishda*

menga yordam beradi, xolos. (Ch.Aytmatov. "Jamila")

Bu matnda so'zlovchi o'zining ichki kommunikativ faoliyati bilan bog'liq tagma'noni propozitsiya tarkibida yashirin bayon qiladi. Nutq sub'ekti propozitsional mazmunni ichki hissiyot akti bilan bayon qilish natijasida, bu akt vositasi bilan tagma'noga ishora qiladi. Bu tagma'no "Men yordam olishim aniq" mazmunidan iboratdir. Ichki hissiy so'z akti orqali tagma'noga ishora qilish bilan o'quvchidan ma'lum nutqiy murojaat tasdig'i talab qilinadi.

Ko'p hollarda so'zlovchi o'zi uchun muhim bo'lgan axborot ko'rinishlaridan birini oshkora bayon qilishni istamaganligi uchun uni matn ichiga tagma'no sifatida joylashtiradi. Oshkora bayonga ega bo'lmagan tagma'no ko'rinishi, garchi yashirin berilgan bo'lsa-da, tinglovchi uchun ma'lum bo'ladi. Masalan:

Qaytish xabari Oftob oyim qulogiga yetishgandan keyin uning avvalgi uchrashishi qizi bilan edi. Chunki eriga qaraganda ham ko'proq ixtiyorni qizida bo'lganini yaxshi bilar edi. Shu xabarni Hasanalidan eshitish ila to'g'ri Kumushning yoniga kiradi:

- Kumush, - dedi kulimsirab, - qaytar emishmiz, dadang aytibtilar.

Kumush qo'lida nimadir tikib o'lturg'on edi. Ko'zini ishdan olmadi,

- Qaysalaringiz xayr –xo'sh.(A.Qodiriy)²⁵

Bunda so'zlovchi axborot ko'rinishlaridan birini, o'zi uchun muhim bo'lganini tagma'no qatoriga kiritadi. So'zlovchi uchun muhim sanalgan tagma'noning argumentlari nutq sub'ektiga to'la ma'noda tushunarli bo'ladi, shuning uchun ham bu tagma'no ko'rinishi darak mazmuni bilan bayon qilinadi.

Ba'zi holatlarda yozuvchining o'zgaca tasvir akti ham tagma'noni ifoda etadi. Masalan:

Do'lan tobora yaqinlashib kelmoqda.Chiroq nurlari qop-qora tun qo'yniga cho'kkan ulkan daraning qoyalarini siypalab o'ta boshladi. Qorli qalpoqlarini bostirib kiyib olgan bu qoyalar yo'l ustida osilib turardi. (Ch.Aytmatov. "Jamila")²⁶

²⁵ Abdulla Qodiriy .O'tkan kunlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1967 84-b.

²⁶ Ch.Aytmatov. Erta kelgan turnalar. Фафур Фулом nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1982 .109-b.

Tagma'no faqat adresant tomonidangina sodir etilmaydi, balki so'zlovchi nazarda tutgan tagma'no tinglovchi tomonidan ham izoh sifatida bayon qilinadi. Masalan: *"Eshon askarlikdan qolish uchun bir haftaning ichida bisotidagi yigirma olti tishining hammasini sug'urtirib tashlabdi. Saida hayron bo'ldi, qanday?"* kabi savollarning tug'ilishi umumyashirin mazmunning kommunikatsiyadagi ahamiyatini kuchaytiradi.

Tagma'no so'zlovchining kommunikativ maqsadini amalga oshirib, u nutq ishtirokchilaridan birortasini kelgusi nutq vaziyatidan ogoh etadi. Masalan: *Bu kishi Ahmadjonning ukasi Karimjon bo'ladilar.* Bu jumla semantik tuzilishida "Karimjonning tanishtirilishi" haqidagi propositsiya ichida quyidagi tagma'nolar mavjud: 1. Ahmadjonning tinglovchi uchun tanish ekanligi. 2. Ahmadjon haqida yomon gaplarni aytmalik. Tagma'no nutq ishtirokchilarini kelgusi nutq vaziyatidan ogoh etadi. So'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, nutq ishtirokchilaridan birini tagma'no orqali ma'lum vaziyatdan ogoh etadi.

Ifoda semantik tuzilishidagi xabar mazmunidan propositsiyani, mantiqiy propositsiyani, umumyashirin mazmunni va tagma'no ko'rinishlarining birini ikkinchisidan farqlash lozim bo'ladi.

1. "Karimjonning tanishtirilishi" propositsiya.
2. "Nutq sub'yektining yonidagi odam Ahmadjonning qarindoshi ekanligi" mantiqiy propositsiya.
3. Mantiqiy propositsiyaning aynan shu vaziyatda berilishi yashirin mazmun.
4. "Ahmadjon haqida yomon fikrlar aytmalik" xususidagi "Karim Ahmadjonning ukasi" tipidagi axborot tagma'no hisoblanadi.

Tagma'no o'zining semantik strukturasi xabar qilish va nomlash funksiyasini bajarishiga ko'ra dastlab ikkiga ajratiladi: 1. Kommunikativ tagma'no.

- *Noshukur ekansiz, opa, - dedi - pochchamdan nolishingiz yaxshi emas, sizning ham boshingizga meni kunimni solsa, nima qilar edingiz?*
- *Men ham Zaynab bo'lsam, albatta solar edi. (A.Qodiriy).*²⁷ Bu matnda

²⁷ Abdulla Qodriy .O'tkan kunlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1967..91-b

"Zaynabning bo'shashganligi" xususidagi voqelik aktining nominativ aspekti referensial tagma'no deb yuritiladi. Matndagi tagma'no o'zining yuzaga kelishidagi belgi xususiyatlariga ko'ra quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

1. Fonopragmatik tagma'no. Tagma'noning bunday ko'rinishi so'zlovchining talaffuz ohangi bilan bog'liq bo'ladi. So'zlovchi bunda matn tarkibidagi propozitsional akt elementlarini o'ziga xos ohang bilan - emfatik usul bilan talaffuz qiladi. So'zlovchi bunda matnning talaffuz ohangiga alohida urg'u berish bilan tinglovchiga "men shunaqaman" tipidagi tagma'noni uzatishga harakat qiladi. Tagma'noning fonopragmatik ko'rinishida matnning umumiy mazmuni ikkinchi planga o'tadi. So'zlovchi talaffuziga xos fonopragmatik ohang usuli birinchi darajali ma'no usuli deb qaraladi. Masalan: *Xurinso erini o'larday go'l podsho, o'zini nihoyatda quv vazir qilib ko'rsatishga harakat qilar edi. Qalandarov keldi. Huriniso eri haqida aytilganlarini amalda ko'rsatmoqchi, yana "shunday odam ham menga bo'yin egadi" demoqchi bo'ldi, shekilli, uni g'azabiga oldi:*

- *Kelar edingiz-da... Shu ham ishmi! Hamisha shunaqa qilasiz!.. Qachon tashlaysiz shu fe'lingizni?! - deb shovqin soldi. (A.Qahhor)²⁸.*

Fonopragmatik tagma'noning ba'zi ko'rinishlarida so'zlovchi o'z nutqi orqali bayon qilingan propozitsiyaning emfatik usul bilan talaffuz qilishi natijasida - undagi alohida ohang samimiylilik ma'nosini ifoda etadi. Masalan:

Marg'ilonga shom vaqtida kirgan edim, ko'zlagan joyimni topolmay adashdim...

~ Qani bo'lmasa, juring biznikiga, mehmon, - ayt kuchining so'z ohangidan o'rtoqlik bo'yi kelib Otabekning dimog'iga urildi. (A.Qodiriy).²⁹

Bu matnda so'zlovchi nutqiga xos "chin yurakdan o'z uyiga taklif qilish" - "o'rtoqlik bo'yi" mazmuniga teng kelgani holda nutqiy muloqot jarayonida kundalik odatga ko'ra shaklan taklifga teng bo'lsa-da, "Suhbatni tugatish", "xayrlashish" mazmunidan iborat takalluf ko'rinishlarining "Samarqand manzirat" tipidagi shakllarida ohangning funksiyasi o'zgachadir. Masalan:

²⁸ Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977.113-b

²⁹ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1967.91-b

- *Choy ichmaymizmi?*
- *Ichkariga yursangiz bo'lar edi* shaklidagi ifoda tarkibida ham tagma'no mavjud bo'lib, bu "yurakdan taklif qilish ottenkasiga ega emas"lik mazmunidan iboratdir.

2. Stilopragmatik tagma'no. Tagma'noning bunday ko'rinishi so'zlovchining individual uslubi bilan bog'liq bo'ladi. Bunga ko'ra so'zlovchi tomonidan undash akti vositasi bilan talab qilingan ma'lum axborot ko'rinishi so'zlovchi nazarda tutgan mazmunni saqlagani holda boshqa propozitsional shakl bilan ifodalanadi. Tinglovchi boshqa propozitsional shakl orqali aynan so'zlovchi nazarda tutgan axborot ko'rinishini ifodalash uning individual uslubiy mahorati sanaladi. Shuning uchun ham bunday shakldagi tagma'no ko'rinishlari stilopragmatik tagma'no deb yuritiladi. Masalan: - *Saodat, - dedim. Qaradi. O'choqda yongan olov issig'idanmi yoki uyatdanmi uning yuzi qip-qizil olma edi. Qo'lidagi sochig'i bilan oldimga yaqin kelib to'xtadi. - Eshitdingmi, - dedim. Yerga qaradi. Uni ortiqcha uyaltirmaslik uchun eshikka qarab yura boshladim-da, - Maylimi? - deb so'radim. Javob o'rniga*

- *Osh yemay ketasizmi? - dedi. Bu uning ikkinchi turlik qilib aytilgan "mayli" javobi edi. (A.Qodiriy).*³⁰

Bu matndagi tinglovchi nutqiga xos "mayli" javobining "osh yemay ketasizmi?" tipidagi mehribonchilik ma'nosini ifoda etuvchi boshqa propozitsional shakl vositasida bayon qilinishi stilopragmatik tagma'no deb yuritiladi.

Uslubiy tagma'no ko'rinishlarida so'zlovchi o'z ichki maqsadi aks etgan mazmunni boshqa uslubiy shaklda ifoda etadi. Masalan: *Nihoyat Qalandarov g'ashi kelganini bildirmaslik uchun kulib dedi:*

- *Xo'jayin, mehmonga ham so'z beramizmi, yo'qmi? - dedi. (A.Qahhor).*³¹

Bu matn parchasidagi uslubiy tagma'no ko'rinishi "Gapni to'xtat" mazmunidan iboratdir.

³⁰ A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. T. G'afur G'ulom nashriyoti.57-b.

³¹ Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977.113-b

3. Metaforik tagma'no. Tagma'noning bunday ko'rinishlarida so'zlovchi tinglovchini ma'lum bir predmetlarga o'xshatish asosidagi propozitsiyani berish bilan o'zi nazarda tutgan axborot ko'rinishiga ishora qiladi. Natijada matn tarkibida metaforik tagma'no yuzaga keladi. Masalan: *Kolxozni opichlab katta qilgansiz!.. Kolxozniig dardi qayerda, qitig'i qayerda ekanini yaxshi bilasiz!.. "Bo'ston"ga o'xshagan kolxozlardan o'ntasini bitta sinchalovingiz bilan ko'tarasiz!.. Sinchalak degan qushni bilasizmi, oyog'i ipday... Shu qush "osmon tushib ketsa ushlab qolaman" deb oyog'ini ko'tarib yotar ekan! (A.Qahhor)³².*

Bu matnda metaforik tagma'no ko'rinishi mavjud bo'lib, u "Sen ham sinchalak degan nozik qushga o'xshaysan, shuning uchun ham qo'lingdan kelmagan ishga urinma" mazmunidan iboratdir.

Metaforik tagma'noning matndagi ifodasi so'zlovchining ichki maqsadi bilan uzviy bog'liq bo'lib, fikrning ta'sir etish darajasini kuchaytiradi. Tinglovchining his-tuyg'usiga ta'sir etish va yangi nutq vaziyatini yuzaga chiqarishning (perlokutiv aktlar) boshlang'ich nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan:

Saida bir lahza o'ylanib qolganidan keyin miyig'ida kulib:

- Dunyoda bunaqa jonivorlar ko'p. Arslonbek aka, - dedi, -xo'roz ham "Men qichqirmasam tong otmaydi" deb o'ylar ekan... (A.Qahhor)³³.

Metaforik tagma'noning ushbu ko'rinishi "tongning otishi uchun xo'rozning qichqirishi shart bo'lmaganidek" propozitsiyasi ta'sirida "siz bo'lmasangiz ham kolxozning ishlari bo'laveradi" mazmunidan iboratdir. Metaforik tagma'no ko'rinishlarida bayon qilinayotgan propozitsional akt o'xshatish mazmunidan iborat bo'ladi va ana shu o'xshatish kuchlilik belgisi asosida yuzaga chiqib, bunda so'zlovchi maqsadi aks etadi. Masalan: *Siz bolalik qilib, bunaqa xom xayollarga borib yurmang. Men aravadan boshqa ishga yaramaydigan pachoq otday ko'rinsam ham, uncha-muncha chavandoz minolmaydigan uloqchi otman! Uncha-muncha odamni yerga chalpak qilaman!.. Chalpak! Buni bilib tushunib qo'ying!*

³² Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977.73-b

³³ Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977..93-b

³¹ Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977.114-b

(A.Qahhor)³⁴ Bu matnda bayon qilingan tagma'no "Men bilan hazillashmang, kuchingiz yetmaydi" mazmunidan iboratdir.

Metaforik tagma'no noverbal ifoda shaklida ham namoyon bo'ladi. Bunda so'zlovchi xatti-harakatlari va imo-ishorasida uning ichki niyati yashirin ifoda mazmunida tagma'no yuzaga keladi.

Verbal ifoda bo'lsa ham, noverbal ifoda bo'lsa ham ularning semantik strukturasi so'zlovchi va tinglovchi nutqiga xos xususiy ma'no ko'rinishlari bilan to'ldirilgan bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday ifoda semantik tuzilishida nutqiy vaziyatga ko'ra yashirin xususiy ma'no komponentlari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos tarzda yuzaga chiqadi. Tagma'no ko'rinishlari faqat verbal ifodalardagina bo'lib qolmasdan, balki noverbal ifodalarda ham o'z bayoniga ega bo'ladi. Jumladan:

- *Aybi yo'q, o'glim, dedi, - muhabbat juda oz yigitlarga muyassar bo'ladirgan yurak javharidir. Shuning bilan birga ko'p vaqtlar kishiga zararlik ham bo'lib chiqadir. Shuning uchun kuch sarf qilib bo'lsa ham unutish ko'p o'ylamaslik kerakdir.*

*Bu keyingi gap bilan Otabek ko'tarilib Hasanliga qaradi va uzoq tin olib yerga boqdi. Go'yo buning ila "unutish mumkin emas" degan qat'iy fikrga kelgan edi. (A.Qodiriy).*³⁵

4. Individual xususiy tagma'no. Individual tagma'no ko'rinishlari faqat ba'zi shaxslar nutqidagina qo'llanib, ularning xarakterini ochish uchun xizmat qiladi. Bunda so'zlovchi nutqida qo'llanayotgan tagma'no shartli tagma'no sifatida so'zlovchi va tinglovchi uchun tushunarli bo'lgani holda boshqa nutq ishtirokchilari uchun noma'lum bo'ladi. Masalan: *Bir pas jimlikdan keyin Qalandarov gulzorning narigi tomonidagi idoraga qarab:*

- *Eshon, hoy! - deb chaqirdi. (A.Qahhor).*³⁶

³⁵ Abdulla Qodiriy .O'tkan kunlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1967.91-b

³⁶ Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977.114-b

Individual tagma'ning ba'zi ko'rinishlari so'zlovchi yoki tinglovchining xarateri bilan uzviy bog'liq bo'lib, tinglovchining nima demoqchi ekanligi uning qanday so'z bilan munosabat bildirishi vositasida anglanadi. Bunday shartli tagma'no ko'rinishlari, asosan, so'zlovchining xarakteri bilan aloqador bo'ladi. Bunday tagma'nolar individual xususiy tagma'no ko'rinishlari sifatida faqat ba'zi shaxslar nutqigagina taalluqli bo'ladi. Individual xususiy tagma'no ko'rinishlaridan yozuvchi obraz xarakterini ochish maqsadida foydalanadi:

Hoji bir necha vaqt so'zlashuvchini o'z ozziga tikiltirib o'lturgandan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'p" deydir, gapga tushunmagan bo'lsa, "xo'sh" deydir, noma'qul bo'lsa "durust emas" deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalanadi.

O'zbek oyim o'zining itob va xitobiga eridan bir iljayib qo'yish javobini olib dami ichiga tushadir. (A.Qodiriy).³⁷

Bu matnda so'zlovchi fikrining juda noma'qul ekanligi xususidagi tagma'no noverbal ifoda "bir iljayib qo'yish" bilan bayon qilinadi.

5. Ekspressiv tagma'no. Eksnressiv tagma'no ko'rinishlarida so'zlovchi nazarda tutgan niyatga uning his-tuyg'ulari ham qo'shiladi. So'zlovchi propozitsional akti sodir etar ekan, o'zi qilgan ishlardan g'ururlanish, maqtanish ottenkalari aks etgan yashirin mazmunni propozitsional akt orqali bayon qiladi. Masalan: *Huriniso:*

- Hammasi ham o'nib o'sdi: biri kolxoz raisi, biri rayon madaniyat bo'limining boshlig'i, biri deputat... Ha, aytganday, qaysi kuni Hakima kelgan edi, qahramon bo'lishiga o'ttiz bir tonna yetmabdi.

Hurinisoning bu ayollar haqidagi gaplaridan "Men o'qitgan ayollar mana shunaqa martabalarga erishdi"- degan iftixordan ko'ra ko'proq, "bari-bir hammasidan yana o'zim dono" -degan bir g'urur aks etar edi. (A.Qahhor).³⁸

6. Monologik akt ma'no ko'rinishi. Tagma'ning monologik nutq tipiga xos ko'rinishi ham mavjuddir.

"... bosilmaguncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir!" -bu jumlaning o'quganda,

³⁷ Abdulla Qodiriy .O'tkan kunlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1967.91-b

- undog' bo'lsa sira tinchimangiz, - dedi-da yovoshgina iljayib qo'ydi. (A.Qodiriy).³⁹

Bu misolda Otabek "undog' bo'lsa sira tinchimangiz" deyish bilan "o'zimning ham Marg'ilondan sira ketgim yo'q edi, xayriyat" tarzidagi yashirin tagma'no ko'rinishini ifoda etadi. Ba'zi holatlarda so'zlovchi nazarda tutgan tagma'noning to'g'ridan-to'g'ri ifodalanishi mumkin bo'lmay qoladi. Bunga tagma'no qaratilgan adresatning ijtimoiy mavqei yo'l qo'ymaydi. Matn semantikasi va pragmatik tuzilishi masalalari bilan aloqador yo'nalishlar qator olimlarning ishlarida o'ziga xos tarzda tadqiq etilgan. Tagma'noning ifodalanish sub'ekti matn propozitsiyasi sanaladi. Propozitsiya qurilmalar orqali ifodalanadi. Ayni vaqtda mana shu qurilmalar ham presuppozitsiya ifodalab, matn semantik strukturasini murakkablashtiradi. Presuppozitsiyani aniqlash matn orqali bayon qilingan semantik strukturani tahlil qilish usuli bilan amalga oshiriladi.

-Durust, durust! - dedi. - Ayol toifasidan bo'lsangiz ham, durust chiqdingiz!.. Saida kuldi.

- *Hech andiila qilmaysiz, odamga qattiq tegadi ham demaysiz-a, Arslonbek aka!.. Ayol toifasidan bo'lsangiz ham ... Bu maqtaganingizmi? (A.Qahhor)*⁴⁰.

Bu matnda presuppozitsiya va tagma'noni farqlab olishi kerak. Bunday xatti-harakatlariga va so'zlariga tadqiqotlarning qizig'i shundaki, so'zlovchi nazarda tutgan presuppozitsiyaga ham, tagma'noga ham ko'pincha bir nuqtada ishora qilinadi, shuning uchun ham ularning o'ziga xos xususiyatlari asosida ajratib olish tadqiqotchidan o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Jumladan, yuqoridagi matnda "Ayol toifasidan bo'lsangiz ham" ifodasida "Erkak kishi bo'lmasangiz ham" tushunchasi presuppozitsion axborot sifatida qarama-qarshi tomonga tortiladi. "Ayol kishining qo'lidan hech narsa kelmas edi, sizning qo'lingizdan ancha-muncha ishlar kelar ekan" mazmuni tagma'no sifatida so'zlovchi xususiy munosabatni ifoda etadi.

Tagma'noning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bayon qilingan jami

³⁸ Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977.114-b

³⁹ Abdulla Qodiriy .O'tkan kunlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1967.111-b

⁴⁰ .Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977.114-b

propozitsion axborotning umumiy yakuni so'zlovchi nazarda tutgan tagma'no hisoblanadi. So'zlovchi nazarda tutgan tagma'no ko'rinishi o'zida baho mazmunini ifoda etadi. So'zlovchi bu bilan tinglovchining o'z xususiy munosabatini ifoda etadi.

Bob bo'yicha xulosa:

1. Grammatik tizimda konnotativlik leksik vositalar, ya'ni so'zlar bilan bir qatorda grammatik vositalar, ya'ni so'zlarning gap sifatida shakllanib o'zgacha ma'no kasb etishi orqali ham namoyon bo'lishini ko'rish mumkin.
2. Bu borada konnotativlikning eng yorqin ko'rinishi ko'proq ichi bo'sh bo'lgan olmosh so'z turkumi doirasida uchraydi. Olmoshlar denotat sifatida qo'llanishi zarur bo'lgan so'zlar o'rnida konnotativlik ma'nosida qo'llanishga ixtisoslashga deyish ham mumkin.
3. Konnotativ ma'noning atoqli otlar shakli ham olmoshlar bilan almashinib, konnotativlikni hosil qiladi. Bu ham albatta, morfokonnotativlik sifatida taqlqin etilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.
4. Badiiy matnda qo'llanuvchi konnotativliklarning o'ziga xos turlari uchraydi. Bu jihatdan ularni fonkonnotativlik, morfokonnotativlik, stilokonnotativlik yoki o'xshashlik bilan yuzaga chiquvchi metaforik, individuallikka asoslangan, ekspressivlikka asoslangan guruhlar ostida o'rganilishi ham maqsadga muvofiqdir.
5. Badiiy matnni konnotativlik asosida talqin etish, asar mazmunini to'la va ijodkor maqsadi darajasida tushunishga, shu bilan birga ijodkorning so'z qo'llashdagi mahoratini o'rganishga katta imkoniyat yaratadi.
6. Matn tarkibida qo'llanadigan tagma'no personajni kitobxonga yanada yaqin tanishtirish? Uning hatti-harakatidan boxabar bolishga xizmat qilsa, presuppozitsiyada presuppozitsion axborotning qarama-qarshi tomoni ham mavjudligini eslatadi.

2-BOB. BADIY MATNDA DENOTATIV VA KONNOTATIV MA'NO MUNOSABATI

Ma'lumki, leksema tilning asosiy birligidir. Har qanday leksema tovush va ma'no tomonlarining birligidan iborat bo'ladi. Leksemaning ma'no tomoni semema sanalib, u ham muayyan elementlardan — semalardan tashkil topgan nisbiy butunlik sanaladi. Demak, leksema sememasining ichki tuzilishi semalardan tashkil topadi. Ana shu semalar o'rtasidagi munosabat leksemaning mazmuniy tuzilishini, boshqacha aytganda, mazmuniy mundarijasini tashkil etadi.

Sh.Rahmatullaevning fikricha, leksemaning mazmun planiga atash ma'nosidan tashqari, stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi-xususiyatlar ham kirib, bular barchasi birgalikda sememaning semantik strukturasini hosil qiladi. Albatta, leksemaning mazmuniy mundarijasida atash ma'nosi bilan birga so'zlovchining munosabati, ya'ni bahosini ifodalovchi semani ham inobatga olish lozim. SH.Rahmatullaev leksema orqali nomlanayotgan voqelikka munosabat bildirish belgisini baho semasi sifatida o'rganadi⁴¹.

G'.Qambarov ham baho so'zlovchining bayon qilinayotgan ob'ektga munosabatini bildiruvchi vosita ekanligini ko'rsatadi. Olimning fikricha, baho munosabati nominativ ma'no ustiga ko'yilgan aksiologik ma'no orqali yuzaga chiqadi⁴².

Bizningcha ham, so'z ma'nosiga yuklanuvchi qo'shimcha ma'no so'zning semantik strukturasida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan komponentdir.

Demak, so'zning borliqtsagi narsa, hodisa, belgi va shu kabilar haqida ma'lumot beruvchi komponenti atash (nominativ, denotativ) ma'no bo'lib, u so'z semantikasidagi birlamchi va asosiy komponentdir. Konnotativ ma'no esa atash

⁴¹ Rahmatullaev SH. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. — B.51.

⁴² Qambarov G'. Baho munosabati va uning uzbek tilida ifodalanishi (shaxslararo munosabat asosida); Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. - Toshkent, 2008. - B. 5.

ma'nosining nutqiy imkoniyatlarini, so'zlovchining shaxsiy munosabatini yuzaga chiqaruvchi ma'no sifatida ahamiyatlidir. Har qanday mustaqil so'zning semantik strukturasida atash ma'nosining bo'lishi tabiiy, biroq emotsional-ekspressiv ottenka so'z semantik strukturasida doimo bo'lishi shart emas.

Ko'rinadiki, leksemaning semantik strukturasini murakkab tuzilishga ega bo'lib, atash, konnotativ, pragmatik, uslubiy singari semalarni o'z ichiga oladi. So'z semantik strukturasining asosiy komponenti atash ma'nosi bo'lib, uning ustiga kurilgan ko'shimcha ma'nolar konnotativ ma'nodir.

Qo'shimcha ma'nolar deyilganda, so'zning atash ma'nosiga qo'shimcha tarzda, ya'ni emotsional-ekspressiv va stilistik belgi beruvchi ma'nolarning yuklanishi tushuniladi.

Insonlar o'zaro og'zaki va yozma nutq orqali muloqotga kirishadilar. Ayrim hollarda nutqning bu ikki turidan tashqari, turli xil imo-ishoralar va gavda harakatlaridan foydalangan holda o'z fikrlarini bir-birlariga yetkazadilar.

Bu yordamchi vositalar ham til birliklari kabi muayyan fikr ifodalash bilan birga, so'zlovchining sub'ektiv munosabati, uning ruhiy holatini, ya'ni konnotatsiyani aks ettirishga xizmat qiladi. SHu sababli konnotativ ma'noni yuzaga chiqaruvchi vositalarning ikki turini farqlash mumkin:

1. Lingvistik vositalar.
2. Ekstralingvistik vositalar.

Lingvistik vositalar bu - konnotativ ma'noni yuzaga chiqaruvchi til birliklari bo'lsa, ekstralingvistik vositalar konnotatsiya ifodalovchi, biroq til birliklari doirasiga kirmaydigan, ya'ni yuqorida qayd etilgan imo-ishora va gavda harakatlaridir. Ekstralingvistik vositalar yordamchi aloqa quroli vazifasini bajarishi bilai birga, konnotativ ma'noni hosil qiluvchi vositalar ham hisoblanadi. Masalan, E.Vohidovning «Istanbul fojiasi» asaridan olingan quyidagi misollarda paralingvistik vosita qo'llash orqali konnotatsiya hosil qilingan.

Sumkali sayyoh: (*Bosh barmog'ini ko'rsatib*) Bundoqlari bor. Yuring, o'zim

⁴²Qambarov G'. Baho munosabati va uning uzbek tilida ifodalanishi (shaxslararo munosabat asosida); Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. - Toshkent, 2008. - B. 5.

ko'rsataman.

Yana boshqa misol:

Iskandar: Sen ham qaribsan. Namoz o'qiysanmi?

Jalol - (*Miyig'ida kulib qo'yadi va bosh tebratib «yo'q» ishorasini qiladi*). Sen-chi?

Birinchi gapdagi "bosh barmog'ini ko'rsatib" ishorasini bildiruvchi izoh olib tashlansa, fikr mavhum bo'lib qoladi. Bu yerda paralingvistik vositaning lisoniy ifodasi (Bosh barmog'ini ko'rsatib) **Bundoqlari bor** jumlasidagi axborotning ekspressiv tarzda berilishini ta'minlagan.

Ikkinchi gapda "bosh tebratmoq" hatti-harakat ifodasi **yo'q** inkor so'z - gapining ta'sirini kuchaytirish maqsadida kiritilgan. Ko'rinadiki, har ikkala gapda ekstralingvistik vositalar konnotativlik uchun xizmat qilgan.

2.1. She'riy asarlarda konnotativlik

Ma'lumki, poetik matnda bir xil undoshning ketma-ket takrorlanishi, ya'ni alliteratsiya o'ziga xos ritmni vujudga keltiradi. She'riyatda bu usul orqali she'rning ohangdorligi kuchaytiriladi va bu orqali kitobxonga estetik zavq beriladi. E.Vohidov she'riyatida ham alliteratsiya konnotativ ma'noni hosil qilishga xizmat qilganini ko'rish mumkin:

Mohiru mehru mahorat,

Olqishu ilmu amal:

Oshiqu ishqu mashaqqat,

SHoiru she'ru shuur ("To tirikdirki tabiat")

Bu she'riy parchaning dastlabki ikki misrasida **m** undoshga, keyingi ikki misrasida **sh** undoshi ketma - ket ishlatilgan: har ikkisi olti marta qo'llangan. Misralardagi tovushlar takrori she'rning nafaqat musikiylikni, balki mazmunan yanada ta'sirchan bo'lishini ta'minlagan. Shoirning "Qaro qoshing, qalam qoshing..." deb nomlangan sherida esa **q** tovushining takror qo'llanilishi she'rning jozibadorligini kuchaytiradi. Bunda shoir mohirlik bilan tovush o'yinini

hosil qiladi.

Erkin Vohidov she'rlarida so'zlarning fonetik variantlari orqali konnotatsiya ifodalash holatlari kuzatiladi. Masalan, she'rdagi ohangdorlikni, musiqiylikni kuchaytirish uchun **Tyanshan** so'zi **Tiyonshon** deb berilgan:

Tarixingdir ming asrlar

Ichra pinhon, o'zbekim.

Senga tengdosh Pomiru

Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim. ("O'zbekim")⁴³

Shoir **momaqalldiroq** so'zini **kelajak** so'ziga ohangdosh qilish uchun **momoguldirak** shaklidan foydalanadi:

Doktor, quloq tuting! Momoguldirak!

Havo tozarmoqda — virusga qiron.

Salom senga, oppoq, tiniq kelajak,

Olqish bo'lsin senga, uyg'ongan bo'ron. ("Viruslar")⁴⁴

E.Vohidov asarlarida ko'chma ma'noli so'zlar orqali konnotativ ma'noning qosil qilinishi yoritilgan. Shoir metafora, metonimiya, ironiya, giperbola kabi ko'chimlardan mohirona foydalanib, konnotativ ma'no hosil qilganligi misollar asosida ko'rish mumkin. U xususiy metaforik ko'chimlari bilan asarlarining badiiy qimmatini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Jumladan, shoir metaforani hosil qilishda ot, sifat, fe'l turkumidagi so'zlardan keng foydalanadi. Masalan:

Muhabbat otashini

Hech qachon do'zaxga teng qilmam,

Nechunkim, menga nurli —

Tal'ating jannat bilan tengdur ("Muhabbat birla...")⁴⁵

Bu misrada **otash** so'zi metaforik ma'noda qo'llangan bo'lib, **a** uning o'z ma'nosi "o't, olov", ko'chma ma'nosi esa "dilni yondiradigan, o'rtantiradigan

⁴³ E.Vohidov.Muhabbatnoma.Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nashriyoti. T.

⁴⁴ E.Vohidov.Muhabbatnoma.Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nashriyoti. T.

⁴⁵ E.Vohidov.Muhabbatnoma.Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nashriyoti. T.

haroratli his-tuyg'u" tarzida izohlangan⁴⁶. Shoir **muhabbat otashi** birikmasini ko'chma ma'noda qo'llab, ijobiy munosabatni bildirgan. Uning **do'zax** so'zi bilan zidlantirilishi she'rning ta'sirchanligini yanada oshirgan.

Oshiq o'lding, ey ko'ngil,

G'am lashkaridan qo'rqmagil,

Bari chopqu oldda, Erkin,

Ne uchun vahm aylading? ("Kiprigingdan o'q uzib...")⁴⁷

Bu she'riy parchada esa g'am lashkari birikmasi metaforik ma'noda qo'llangan. **G'am** so'zi o'z ma'nosida, **lashkar** so'zi ko'chma ma'noda berilgan.

Ma'lumki, **lashkar** so'zi juda ko'p askarlardan tashkil topgan qo'shin ma'nosini bildiradi. **G'am lashkari** birikmasi perifrastik metafora bo'lib, **lashkar** so'zining semantik tarkibidagi "son-sanoqsiz" semasi oshiq ko'nglidagi g'am-alam tuyg'usining cheksizligiga ishora qiladi.

Shoir Erkin Vohidov metonimiyaning turli xil ko'rinishlaridan ham foydalanadi. Masalan:

Sig'inaylik o'sha tanho,

Tahqirlangan qabrga. («Fidoyilik to'g'risida rivoyat»)

Ushbu misrada sig'inish harakati qabrga nisbatan bo'lmay, shu qabrda yotgan insonga qaratilgan. SHoir bu o'rinda odamlarga xos bir salbiy odatga ishora qiladi. Ya'ni ayrim kishilar bir-birining qadriga tirikligida emas, bu dunyodan o'tib ketgandan so'nggina yetadilar. Metonimik ifoda orqali anglashiluvchi ana shu yashirin mazmun nutq sub'ektining voqelikdan noroziligi, afsuslanishi kabi munosabatlarini namoyon etib, nutqning konnotativligini kuchaytiradi.

Shoir «Ona tilim o'lmaydi» she'rida ham qabr timsoliga murojaat qiladi:

⁴⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati .Begmatov E., Madvaliev A., Mahkamov N. va boshqalar. - Toshkent: O'zbekiston mipliy entsikpopediyasi- 2007. 3-jild. N-tartibli. - B.

⁴⁷ E.Vohidov.Muhabbatnoma.Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.1986.

*Beqadr bo'lsa, nahot,
Tushlardagi tarovat!
Yo'qoldi bu kun, hayxot,
Qabrlarda halovat! («Ona tilim o'lmaydi»)*

Ushbu misrada bu dunyodan o'tib ketgan insonlar ma'nosi **qabr** so'zi orqali ko'chma ma'noda berilgan. SHoir nazarida insonlarning o'z ona tiliga bo'lgan munosabati hatto marhumlar halovatining buzilishiga ham sabab bo'ladi. Bunday metonimik ifoda orqali norozilik, achinish, ogoxdikka da'vat kabi sub'ektiv munosabatlar bo'rttirilgan.

O'zbek tilida ironiya ham ekspressivlik ifodalashning o'ziga xos usullaridandir. Ironiya nutqning ta'sirchanligini boshqa qo'shimchalarga nisbatan kuchliroq aks ettiradi. Bunda so'zlovchining asl maqsadi: kesatish, masxaraomuz kulgisi muayyan niqob ostiga olinadi. Ironiya ko'p hollarda so'zlovchining predmet yoki hodisaga salbiy munosabatini ifodalashda qo'llaniladi. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'z va iboralar o'z ma'nosining ziddiga yashirin tarzda ishora qiladi. Sh.Abdurahmonovning fikricha, kinoya bevosita maqsadli tagma'noli matnda hosil bo'ladi⁴⁸. Ko'chma ma'noli birlikning qanday ma'noda qo'llanganligi kontekstda reallashadi.

Shoirning "Sadoqat" nomli to'rtligida kinoyaviy ma'no sarlavha darajasiga ko'tariladi. Sarlavhaning asl ma'nosi she'r o'qilgach yuzaga chiqadi:

*Xotin der: Qo'rqaman, bir zamon erim
Degan: — Egri yursang joning olaman.
O'ttiz yil yashadik o'shandan beri,
Har kun bir o'limdan omon qolaman.*

Ko'rinadiki, she'r qahramoni — xiyonatkor ayol. Ammo shoir buni oshkor aytmaydi, hatto she'rni "Sadoqat" deb nomlaydi. Sarlavha ma'nosiga zid mazmunli voqelikning bayon etilishi she'r sarlavhasining kesatq ma'no kasb etganligini dalillaydi. Bunda so'zlovchining voqelikka salbiy munosabati bo'rttiriladi.

⁴⁸Abdurahmonov SH. O'zbek badiiy nutqida kulgi ko'zg'atuvchi lisoniy vositapar: Filol.fanlari nomzodi... diss. avtoref. - Toshkent, 1997. - B. 12.

O'zbek tilida o'xshatish asosiga qurilgan sintaktik birliklar, o'xshatishni hosil qilishda qo'llaniluvchi vositalar masalasi ilmiy manbalarda atroflicha o'rganilgan⁴⁹.

Ma'lumki, ilmiy manbalarda o'xshatishning **grammatik** va **leksik o'xshatish** kabi turlari farqlanadi. Grammatik o'xshatish ma'lum bir grammatik ko'rsatkichlar orqali hosil qilinib, bunda mazkur ko'rsatkichlar o'xshatish vositasi sifatida yuzaga chikadi. Masalan: ***Siznikida to'y qilib bo'ladimi? Olqindiday hovlingiz bor. To'y bo'lsa, mana menikida- bo'ladi. ("Oltin devor")***

Bu gapda qo'llanilgan ***olqindi*** so'zi:- ***sovun, sovun qoldigi*** lug'aviy ma'nosiga o'xshatish bo'lib⁵⁰, - hovlining hajmi ***olqindiga*** tenglashtirilgan. SHoir bu o'rinda ***kichik hovli*** birikmasi o'rniga ***olqindiday hovli*** birikmasini keltiradi va nafaqat hovlining hajmi to'g'risidagi, balki so'zlovchining salbiy bahosi asosida mensimaslik, pastga urish kabi munosabatlari ham yuzaga chiqadi. Mazkur o'xshatish orqali nutqiy konnotativlik hosil qilingan.

Shoir E.Vohidov badiiy matnda sinonim so'zlarni, ularning ma'no nozikliklarini nazardan qochirmagan holda, o'ta did bilan tanlaydi. Quyida shoirnida, sinonimlardan foydalanish mahoratini yorqin misollar asosida ochib berishga harakat qilamiz.

*Uyginamda jujuqlarni bag'rimga bosib,
Televizor ko'rib yotsam bo'lmasmidi-ya! ("Istanbul fojiasi")*

Shoir bu misrada ***farzand*** so'zining so'zlashuv uslubiga xos ***jujuq*** sinonimidan foydalangan. Bu o'rinda shoir qahramonning bolalarni erkalashi, ularga bo'lgan mehr-muhabbati, sog'inchi kabi ichki hissiyotlarini ifodalash maqsadida aynan shu so'zni tanlaydi.

Ushbu misrada ***jujuq*** so'zining presuppozitsiyaga ishorasi asosida anglashiluvchi ***Farzandlari hali juda yosh*** yashirin axboroti esa qahramonning ijtimoiy holatini yanada ravshanroq aks ettirishga xizmat qilgan.

⁴⁹ Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. - Toshkent, 1976. - B.13; SHomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1983. - B. 239-241; Xudayberganova D.S. Semanticheskiy i stilisticheskiy analiz konstruktivnyy upodobleniya v uzbekskom yazye: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1989. - 22 s.; Mahmudov N. O'xshatish sodda gaplar / O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. - Toshkent: O'qituvchi, 1995. - B.138-146.

⁵⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. Begmatov E., Madvaliev A., Mahkamov N. va boshqalar. - Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi- 2007. 3-jild. N-tartibli. - B. 120.

Ko'rinadiki, ushbu she'riy parchada qo'llangan **jujuqlar** so'zi pragmatik xususiyat kasb etadi.

Shoir tomonidan pragmatik maqsadda qo'llangan o'zbek tilidagi iboralar, shuningdek, E.Vohidov asarlari tilida frazeologik ma'no kasb etgan **so'z** birikmalari, ya'ni individual iboralar uchraydi.

E.Vohidov asarlarida qo'llangan konnotativ ma'noni shakllantiruvchi affikslarni, o'zakka qo'shadigan ustama ma'nosiga qarab, quyidagicha guruhlash mumkin: a) kichraytirish; b) erkalash; v) ulug'lash; g) faxrlanish;

d) kamsitish, kesatish ma'nosini bildiruvchi affikslar. Masalan:

a) kichraytirish ma'nosi:

Oy fonusin ko'tardi osmon

Yulduzchalar bo'ldi parvona. ("Oy fonusin ko'tardi osmon");

b) erkalash ma'nosi:

Ayting, dadam meni yaxshi ko'radimi?

Kelganida toycha olib beradimi? ("Nido");

v) kichraytirish-erkalash ma'nosi:

Qani qizcha, qara-chi kulib,

Yaxshi qizsan, aqlli, katta. ("Baxmal");

Birinchi she'riy parchada qo'llangan **-cha** affiksi predmetning kichikligini ifodalash vazifasini bajargan. Ammo bu qo'llanishda **-cha** affiksi orqali nutq sub'ektining ijobiy baho munosabati (pragmatik sema) ham aks etgan.

Ikkinchi she'riy parchada esa **toycha** so'zi ishtirok etgan. **Toy** so'zi aslida otning bolasi, ya'ni **otning kichigi** denotativ ma'nosiga ega. Ushbu so'zga- **-cha** affiksini qo'shish bilan erkalash ma'nosi hamda nutq sub'ektining ijobiy baho munosabati hosil qilingan.

Uchinchi she'riy narchadagi **qizcha** so'zida **-cha** affiksi orqali shaxsning kichikligi, shuningdek, nutq sub'ekgining erkalash munosabati qorishiq holda ifoda

etilgan. SHuningdek, ushbu affiksning presuppozitsiyaga ishorasi asosida gapda **Au qizning yoshi kichik** axboroti yashirin aks etgan. Bu o'rinda **-cha** affiksininsh pragmatik vazifasi yuzaga chiqqan.

Bu affiks sub'ektiv baho ifodalaganda boshqa shu shakldagi omoaffikslardan farqli ravishda ba'zan sinonimga ham ega bo'ladi. Taqqoslang: **qizcha** —qizaloq Bundan dashqari, **-choq, -chak, -chiq** affikslari ham kichraytirish-erkalash ma'nosini beradi. Lekin bu shakllar turli xil ma'no nozikliklarini keltirib chiqarishda **-cha** affiksiga nisbatan passivroq. **-chiq** affiksi otlarga qo'shilib kichiklikni bo'rttiradi. Masalan: *Abdusalom: O', men to'y qilmoqchiman, to'ychiq emas.* ("Oltin devor")

Ushbu gapda anglashiluvchi vaziyatning tor doirada o'tkazilishi, ya'ni **kichik to'y** ma'nosini ifodalash uchun qo'llangan. Bu o'rinda ushbu affiks orqali so'zlovchining kamsitish, mazax qilish kabi sub'ektiv munosabatlari so'zning konnotativ ma'nosi sifatida yuzaga chiqqan. Bundan tashqari, E.Vohidov o'z asarlarida **-loq, -gina, -jon, -xon, -choq, -chak, -kay, -ak** kabi affikslarni ham qo'llab kichraytirish, erkalash, suyish ma'nolarini hosil qilishda foydalangan.

E.Vohidov she'rlarida kattalashtirish, ulug'lash, kuchaytirish ottenkalarini hosil qiluvchi affikslar vositasida ham konnotativ ma'no hosil qilingan. Bu vazifada qo'llanuvchi affikslarga **-vor, -kon, -don, -gon, -on** kabi affikslar kiradi. Ular ishda E.Vohidov asarlaridan olingan misollar asosida taxlil qilingan.

E.Vohidov asarlarida yuklama va yuklama vazifasidagi quyidagi morfologik birliklarning pragmatik-konnotativ vazifa bajarishini kuzatish mumkin:

a) emotsionallikni ta'minlovchi kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: **axir, ham, -ku, -da, -u (-yu), -a (-ya)**; b) ritorik so'roq gaplarni hosil qiluvchi so'roq yuklamalari: **-mi, -chi, -a, -ya, nahot (ki)**; matn tarkibida yuklama vazifasida qo'llanib, emotsionallikni ta'minlovchi birliklar: **-ki, biram, xo'pam, naqadar, shu qadar** kabilar; g) matn tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilib, pragmatik vazifa bajaruvchi yuklamalar: **faqat, -gina, ham** kabilar.

Bu turdagi yuklamalar badiiy matnda nafaqat emotsionallikni ta'minlaydi, balki yashirin axborotga (presuppozitsiyaga) ishora qilib, pragmatik xususiyat ham

kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida yuklamalarning pragmatik xususiyatlari ularning gap tarkibida turli presuppozitsiyalarga ishora qilib, sintaktik qurilmani semantik jihatdan murakkablashtirishi masalasi maxsus o'rganilgan⁵¹.

E.Vohidov asarlarida ham yuklamalarning presuppozitsiyaga ishora qilib, badiiy matnni mazmunan to'ldirishi, uni murakkablashtirishi kuzatiladi. Masalan:

*Bugun senga
Faqatgina she'r bag'ishladim.
Kerak bo'lsa,
Jonni fido qilgim keladi. ("Men jilg'aman'")⁵²*

Ushbu she'riy parchada **faqat** va **-gina** yuklamalari ketma-ket qo'llanib, konnotativ ma'noni hosil qilgan. Bu yuklamalar orqali she'riy parchada ayirib ko'rsatish, chegaralash grammatik ma'nosi kuchaytirilgan. SHu bilan birga, yuklamalarning presuppozitsiyaga ishorasi asosida ushbu badiiy matnda **Bugun senga she'rdan boshqa hech narsa bag'ishladim** yashirin axboroti ham yuzaga chiqadi.

E.Vohidov asarlarida konnotativ ma'noning analitik shakllar orqali hosil qilinishi tahlilga tortilgai. SHulardan biri ot, sifat turkumiga mansub bir xil morfologik birliklarning qaratqich + qaralmish munosabatida birikuvilan hosil bo'lgan analitik shakllardir. Bunda badiiy matnda qaratqich + qaralmish munosabatidagi birikmalar orqali konnotativ ma'noga yo'l ochiladi. Quyidagi misolga e'tibor bering:

*Meni derlar
Nashvati,
Sharbatlarning
Sharbati.
Mazalarnipg
Mazasi,
Lazzatlarning
Lazzati. ("Nashvati")⁵³*

Bu she'riy parchada qo'llangan qaratqich + qaralmish munosabatidagi

⁵¹ Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtbref. - Sshiarkand. 1994. - 23 b.

⁵² E.Vohidov. Muhabbatnoma. Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.1986.

⁵³ E.Vohidov. Muhabbatnoma. Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.1986.

birikmalar orqali ma'no kuchaytirilgan, belgi bo'rttirilgan (*sharbatlarning sharbat* — *eng yaxshi sharbat; mazalarning mazasi juda mazali; lazziatlarning lazziati - juda lazziatli*) va shu orqali nutq sub'ektining baho munosabati ifoda etilgan.

She'riy parchada nutq sub'ekti, ya'ni nashvatining o'zidan faxrlanishi, g'ururi, maqtanishi kabi tuyg'ulari qaratqich + qaralmish muvosabatida so'zlarning o'zaro muvofiqlashuvi orqali namoyon etilgan.

Konnotativ ma'no ifodalashda sintaktik usul alohida o'rin tutadi. SHoir, ayniqsa, ritorik so'roq gaplardan, sintaktik takror va inversiyadan konnotativ ma'noni hosil qiluvchi sintaktik vosita sifatida keng foydalanadi.

E.Vohidovning ritorik so'roq gaplar orqali konnotativ ma'noni hosil qilish mahoratini yoritishga e'tibor qaratiladi. SHoir *kim, nima, nega, qani, qanday (qanday), qachon* kabi qator so'roq olmoshlari yordamida ritorik so'roq gaplarni hosil qiladi. So'roq olmoshlari ishtirokida tuzilgan bunday ritorik so'roq gaplarda mantiqiy urg'u oluvchi bo'lak so'roq olmoshining o'zi bo'ladi. Demak, so'roq olmoshi nimani anglatasa, u ishora qilgan ma'no alohida ta'kidlanadi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi. Masalan, *kim* olmoshi ishtirok etgan ritorik so'roq gaplarda uainya yoki *hech kim* tushunchasi alohida ta'kidlanadi, uning ma'nosi kuchaytiriladi. Bunday ritorik so'roq gapning kesimi inkor shaklda bo'lsa, gap mazmunan-tasdiqni ifodalaydi. Agar gapning kesimi tasdiq shaklda bo'lsa, gap inkor mazmuniga ega bo'ladi. Masalan: *Meni kim ham tushunardi, shafqat qilardi?*. ("Istanbul fojiasi")

Ushbu gapda *kim* so'roq olmoshining presuppozitsiyaga ishorasi asosida gapda *Meni hech kim tushunmaydi, shafqat qilmaydi* yashirin axboroti ifodalanadi. Bu o'rinda nutq sub'ekti ushbu fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifodalamay, ritorik so'roq gap shaklidan foydalanadi. Bu holat nutqning ta'sirchan chiqishiga yordam beradi.

E.Vohidov *kim* so'roq olmoshini ko'plikda qo'llash orqali ham unga konnotativ vazifa yuklagan. Masalan, *Mening o'g'limga kimlar qizini bermaydi?* ("Oltin devor") ritorik so'roq gap orqali *Mening o'g'limga hamma qizini beradi* presuppozitsiyasi ifodalanadi.

Shoir **nima** so'roq olmoshi yordamida hosil qilgan so'roq gaplarda ham yashirin axborotga ishora kuzatiladi. Jumladan, **nima** so'roq olmoshi ishtirokida tuzilgan quyidagi ritorik so'roq gaplarda **hamma narsa, hech narsa** so'zlariga ishora kuchaytirilib, presuppozitsiya ifodalanadi. Masalan: **Men sargardon hayotimda nimani ko'rdim? (Hech nimani ko'rmadim)**(“Istanbul fojiasi”)

Bundan tashqari, bu bo'limda so'roq yuklamalari ishtirokida, intonatsiya yordamida konnotativ ma'noning hosil bo'lishiga ko'plab misollar keltirilgan va tahlil qilingan.

E.Vohidov asarlarida konnotativ ma'noning sintaktik takror va inversiya orqali hosil qilinishi masalasi yoritilgan. Sintaktik takrorda, xususan, gaplarning takror qo'llanishida quyidagilar kuzatiladi: a) gap to'laligicha takrorlanadi; b) keyingi komponent har doim to'laligicha takrorlanmay, ko'pincha u qisqargan holda, ya'ni to'liqsiz elliptik gap tarzida takrorlanadi.

SHunga qarab tilshunoslikda sintaktik takrorning bu turlari quyidagicha farqlanadi:

1. To'la takror. 2. Qisman takror.

To'la takrorda gap qanday sintaktik tuzilishda bo'lsa, shundayligicha takrorlanadi. E.Vohidov sintaktik takrorning bu turidan konnotativ ma'noni hosil qilishda *unumli foydalangan*. Masalan:

Yoshlik, dildan shavq ketgani yo'q,

Yurak seni tark etgani yo'q.

Yurak seni tark etgani yo'q,

Demak, qadringga yetgani yo'q. (“Yoshlik”)⁵⁴

Ushbu she'riy parchada shoirning boshqa she'rlaridan farqli tarzda sintaktik takror alohida misralarda keltirilgan. SHE'riy parchadagi **Yurak seni tark etgani yo'q** misrasining takrori nutq sub'ektining ichki his-tuyg'usini yuzaga chiqaradi, ya'ni bu holatdan shoirning qalbi titroqda, alamda ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bo'limda E.Vohidov konnotativ ma'noni gap bo'laklari o'rnini o'zgartirish hamda muayyan gap bo'lagining tarkibiy qismlari o'rnini o'zgartirish orqali hosil

⁵⁴ E.Vohidov.Muhabbatnoma.Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.1986.

qilganligi ham kuzatiladi. SHoir asarlarida, asosan, quyidagi gap bo'laklarining inversiyaga uchrashi kuzatiladi: 1. Ega-kesim inversiyasi. 2. To'ldiruvchi-kesim inversiyasi. 3. Hol-kesim inversiyasi.

E.Vohidov asarlarida ega-kesim inversiyasi ko'p uchraydi. Quyidagi she'riy matnlarda ham ega-kesim inversiyasi konnotativ ma'noni hosil qilishga xizmat qilgan:

*Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.* (“Kamtarlik haqida”)

*Ortda qoldi ko'hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon, o'zbekim.* (“Uzbekim”)⁵⁵

E.Vohidovning undalmalar orqali konnotativ-pragmatik ma'noni hosil qilish mahorati yoritiladi.

Konnotatiya ma'noni ifodalovchi undalmalar ikki guruhga ajratib taxlil qilingan. 1.Ijobiy munosabatni ifodalovchi undalmalar. 2.Salbiy munosabatni ifodalovchi undalmalar. E.Vohidov she'rlarida partsellyatsiya hodisasi aks etgan misollar ham tahlil qilingan. Masalan,

Donolar! Sizga aytay

O'ylagan bir shaxs

Uni aytishdan avval

Bordir bitta savolim. (“Matmusaning Amerika ochishi”);⁵⁶

Berilgan she'riy parchalarda qo'llangan murojaat birliklari ham **fonolar**; konnotativlikni hosil qilishi uchun o'zi aloqador bo'lgan gapdan partsellyativ birlik sifatida alohida ajratilgan. Bu holat ta'kidni kuchaytirishga, ifodaning ta'sir kuchini oshirishga yordam bergan. E.Vohidov she'rlarida intertekstuallik pragmatik-konnotativ ma'no ifodalash vositasi sifatida” deb nomlangan. Bu bandda intertekstuallikning shoir she'riyatida pragmatik xususiyati tadqiq qilingan. E.Vohidovning “Fuzuliy haykali qoshida”, “Tutqunlikda”, “Vafo” she'rlarida bu

⁵⁵ E.Vohidov.Muhabbatnoma.Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.1986.

⁵⁶ E.Vohidov.Muhabbatnoma.Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.1986.

hodisaning pragmatik-konnotativ ma'noni yuzaga keltirishda muhim omil sifatida qatnashganligi ko'rsatib berilgan.

2.2.Nasriy matn tarkibida konnotatsiyalarning o'ri

Ma'lumki, o'zbek tilida sintaktik vositalar konnotativ ma'noni hosil qilishda alohida o'rin tutadi. SHu sohada tadqiqot ishlarini olib borgan M.Yo'ldoshev o'zbek tilida badiiy matnda aktuallashtiradigan sintaktik vositalarning quyidagi turlarini farqlashni tavsiya etadi: sintakgik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis (antiellipsis), partsellyatsiya, atov gaplar (segmentatsiya), gradatsiya, oksyumoron,(g'ayriodatiy birikmalar), antiteza (sintakgik konstruktsiyalar), farqash, o'xshatish, sukut, ulab ketish, korrektsiya¹.

Ushbu qismda Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida sintaktik vositalarning yuqorida qayd etilgan ko'ri- nishlarini qo'llab, badiiy matnning estetik imkoniyatlarini yanada oshirganligi yoritiladi. Adib mazkur asarida ritorik so'roq gaplardan, sintaktik takrordan konnotativ ma'noni hosil qiluvchi sintaktik vosita sifatida keng foydalangan.

Ma'lumki, ritorik so'roq gaplar badiiy matnda eng faol qo'llanuvchi vositalardan biri bo'lib, u fikrni ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda so'roq gaplar, jumladan, uning alohida turi - ritorik so'roq gaplar maxsus tadqiq ob'ekti bo'lgan va bu ish- larda so'roq gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi, so'roq gaplarda yuzaga keladigan shakl va mazmun nomuvofikligi o'rganilgan. Shuningdek, barcha ilmiy manbalarda, jumladan, o'quv darsliklari, qo'llanmalarda ham so'roq gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi chuqur yoritib berilgan.

Tadqiqotchi A.Ahmedov so'roq gaplarni nutqdagi vazifasiga ko'ra ikki katta guruhga, ya'ni javob talab qiladigan so'roq gaplar yoki sof so'roq gaplar va javob talab qilinmaydigan so'roq gaplar yoki ritorik so'roq gaplarga ajratgan.

Ma'lumki, ritorik so'roq gaplarda gapning sintaktik tuzilishiga zid tarzda aks axborot ifodalanadi. Bu xolat fikrni ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Ritorik so'roq gapda javob talab qilinmaydi, balki bu so'roq gapning o'zi ta'sirchan

javobdir.

Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida badiiy ta'sirchanlikka erishish maqsadida qo'llangan ritorik so'roq gaplar asosan so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalari bo'lib, ular ma'noni alohida ta'kidlashga, ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. Masalan:

- Zax zindonda dodingni kim eshitadi, kim? (243-6.)

Ushbu gapda *kim* so'roq olmoshining presuppozitsiyaga ishorasi asosida «*Dodingni hech kim eshitmaydi*» ma'nosi yashiringan. Bu o'rinda nutq sub'ekti ushbu fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifodalamay, balki ritorik so'roq gapdan foydalangan. Natijada nutqning ta'sirchan chiqishiga erishilgan.

- *Romanda kim so'roq olmoshi ba'zan hech kim ziddiga ishora qilish orqali konnotativ vazifani bajargan. Masalan: Nimaga bolani urasan?*

- **Kim urayapti?! (104-6.)**

Bu ritorik so'roq gapda «*U hech kim bolani urmayapti*» presuppozitsiyasi ifodalangan.

Adib *nima* so'roq olmoshi yordamida xosil kilgan so'roq gaplarda xam yashirin ma'noga ishora kuzatiladi. Masalan:

- Uchuvchini-da ko'rdingmi?

- **Ko'rmay nima!** - deyman. (66-6.)

(Ko'rdim.)

Ba'zan *nima* so'roq olmoshi ishtirokida tuzilgan ritorik so'roq gaplarda *hamma narsa, hech narsa* so'zlariga ishora kuchaytirilib, yashirin ma'no ifodalanadi. Ya'ni, *nima* olmoshi ishtirok etgan ritorik so'roq gaplarda *hech nima* tushunchasi alohida ta'kidlanadi, uning ma'nosi kuchaytiriladi.

Bunday ritorik so'roq gapning kesimi inkor shaklda bo'lsa, gap mazmunan tasdiqni ifodalaydi. Agar gapning kesimi tasdiq shaklda bo'lsa, gap inkor mazmuniga ega bo'ladi. Masalan: *Menda pul nima qiladi?* (97-6.)

Bu misolda qo'llangan *nima* olmoshi ritorik so'roq gapni hosil qilgan. Ushbu

so'roq gapdan *Menda pul yuq* ma'nosi anglashiladi. Romanda *nega, muncha* (*namuncha*) olmoshlari xam ritorik so'roq gaplarni hosil qilgan va fikr ta'sirchanligini oshirgan. Masalan:

- ***Namuncha*** baqrayasan? (251-6.)

Ushbu jumlada ritorik so'roq gap orkali *Baqrayma* ma'nosi ifodalangan. Shunisi xarakterliki, bu olmoshlar qatnashgan gaplarning kesimi bo'lishsizlik shaklda bo'lganda, konnotativ mazmun yanada kuchayadi. Masalan: ***Namuncha*** baqraymasa?

Adibning ushbu romanida konnotativ ma'no ritorik so'roq gaplarni hosil qiluvchi yuklamalar yordamida ham vujudga kelgan:

a) emotsionallikni ta'minlovchi kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: *axir, ham, -ku, -da, -u (-yu), -a (-ya)*;

b) ritorik so'roq gaplarni hosil qiluvchi so'roq yuklamalari: *-mi, -chi, -a, -ya, nahot (ki)*;

v) matn tarkibida yuklama vazifasida qo'llanib, emotsionallikni ta'minlovchi morfologik birliklar: *-ki, biram, xo 'pam* kabilar.

Romanda *-mi, -a, nahotki* yuklamalari yordamida tuzilgan ritorik so'roq gaplarda tasdiq shaklidagi gap orqali inkor, va aksincha, inkor shakldagi gapda tasdiqni anglatuvchi presuppozitsiya ifodalanishi natijasida matnning ta'sirchanligiga erishilgan. Masalan:

- Dorilangan g'o'za ichidayam uxlaysanmi-a? (68-6.)

(Dorilangan g'o'za ichida uxlab bo'lmaydi)

Asarda qo'llanilgan *-mi* yuklamasi ba'zan fe'l, ba'zan ot turkumiga mansub bo'lgan so'zlarga birikib kelgan. Quyidagi gapda yuklama fe'lga bog'lanib, ritorik so'roqni hosil qilgan:

- Kelib-kelib un bir kilosiga qo'l silkiydimi? (66-6.)

(Un bir kilosiga qo'l silkimasligi lozim edi)

Mazkur romanda ritorik so'roq gaplarning maxsus intonatsiya yordamida hosil

qilingan ko'rinishlarini ham uchratish mumkin. Adib bunday ritorik so'roq gaplarni ko'proq dialogik nutqda qo'llagan va ular ironiyani yuzaga chiqarish uchun xizmat qilgan. Masalan:

- Endi paxta termaymiz-a, domla, - deyman.
- **Paxta termaysan?** Endi paxta terasan-da! (59-6.)

Bu dialogik nutqda qo'llangan **Paxta termaysan?** so'roq gapi maxsus oxang yordamida tuzilgan bo'lib, nutq sub'ektining baho munosabatini (taajjubi) hamda yashirin ma'noga ishorasini (*Endi paxta terasan-da*) aks ettirib, konnotativ vazifa bajaradi. Adib yashirin ma'noni matn tarkibida ochiq ifodalash orqali ta'kidni yanada oshirishga muvaffaq bo'lgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, sevimli adibimiz Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida sintaktik vositalardan, xususan, ritorik so'roq gaplardan konnotativ ma'noni hosil qilishda unumli foydalangan va shu orqali badiiy matnning ta'sir kuchini oshirishga erishgan.

2.3. Matn tahlilida konnotativlikka e'tibor

So'nggi yillarda yaratilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ko'pchiligi badiiy asar matnini lingvopoetik tahliliga bag'ishlangani sir emas. Bu esa o'quvchilar uchun badiiy matn tarkibini yanada chuqurroq anglab yetishiga, mazmun mohiyatini anglash barobarida o'zining dunyoqarashi o'sishiga yordam berganligi bilan ahamiyatli sanaladi. Bunga misol tariqasida Z.Chorieva «Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanidagi maktublarning lug'aviy-ma'noviy va uslubiy xususiyatlari»ni maxsus tekshirdi. Ish asosan lingvistik aspektda maktublar tilining leksik-semantik xususiyatlari tahliliga yo'naltirilgan. Unga ko'ra maktublar tilining lug'aviy qatlamlari, ifoda imkoniyatlari, so'zlarning LSG belgilandi, so'z turkumlari bo'yicha guruhlandi. O'rni bilan maktublardagi leksik birliklarning qo'llanish chastotasi (miqdori) aniqlandi. Lekin bu ishning umumiy lingvopoetik qimmat kasb etganligini bildirmaydi. Biroq kelgusida badiiy matnning yaxlit lingvopoetik tahlili

bo'yicha qilinadigan tadqiqot ishlariga samarali ta'sir ko'rsatgani shubhasiz.

Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani ustida lingvistik kuzatishlar olib borgan tadqiqotchilardan yana biri L.Jalolovadir. U ishida roman tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tadqiq etdi. Roman tilining fonetik va morfologik xususiyatlari, asosan, sof lingvistik tahlil doirasiga tortilgan. Unda til taraqqiyoti bosqichlari bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi roman tilida qo'llangan leksik birliklarni tahlil qilish jarayonida yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatishga harakat qiladi. Uni yoritishda lingvopoetik tahlil usuliga yondashadi. Ishda o'xshatish qurilmalaridan foydalanishdagi yozuvchining nasriy mahorati lingvopoetik jihatdan o'rinli tahlil qilingan. Metaforalarda ko'proq semantik tahlil hamda undagi konnotativ semaning badiiy-ekspressivlik kasb etishi izohlangan. Biroq ularning muallifning konnotativ maqsadi bilan bog'liq badiiy niyatini oshirishdagi o'rniga e'tibor berilmagan, ya'ni umumfilologik yo'nalishda tadqiq etilmagan. Bu kabi holatlarni metonimiya, sinekdoha misolida ham, qo'yinki, barcha tasviriy vositalarda kuzatish mumkin. Bizningcha, lingvopoetik tadqiqotlarda yozuvchining til vositalarining qanday usullaridan foydalanganligi emas, qanday maqsadlarda foydalanganligi masalasi ham tadqiqotchining diqqat markazida turishi kerak.

M.Qosimova «Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari»ni Tog'ay Murod asarlari misolida maxsus o'rgandi. Ishda fonetik va leksik vositalar, asosan, lingvopoetik tahlil usulida tadqiq qilingan. O'rni bilan konnotativga murojaat qilinganligi lingvopoetik tahlil uchun samarali natijalar bergan. Yozuvchining grammatik vositalardan foydalanish mahoratini yoritishda, asosan, lingvostilistik tahlil yetakchilik qiladi. Unda «tilga ijobiy zo'rlik qilish» orqali analitik usul bilan yangi fe'l yasash usullari, fe'lning vazifa shakllarining uslubiy xususiyatlari haqida gap boradi. Grammatik vositalar: kirish, undalma va undovlar sub'ektiv modallikning ifodalanishiga, semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlandi. Ularning uslubiy bo'yoqdorligi, nutq uslubiga xoslanganligi tadqiq etildi. Paremlar tahlilida ham tadqiqotchining e'tiborini ko'proq maqol va matallarning komponent tuzilishi, ma'no munosabatiga ko'ra turlari, umuman, lingvistik xususiyatlari

tortgan. Ishda ifodaviy-tasviriyl vositalarning ham, dialektizmlarning ham lisoniy xususiyatlari o'rganish ob'ekti bo'lgan. Masalaga kompleks tarzda yondashilmaganligi ishini yaxlit lingvopoetik tadqiqot darajasiga olib chiqmagan.

Badiiy asar tili bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar orasida she'riyl asarlar lingvopoetikasiga bag'ishlangan ishlar ham kishi diqqatini tortadi. G.Muhammadjonova 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatini M.Yusuf, SH.Rahmon, U.Azim, A.O'ktam, I.Mirzo kabi shoirlar misolida lingvopoetik tadqiq etdi va samarali natijalarni qo'lga kiritdi. Ba'zi o'rinlarda tadqiqotchi yuqorida sanab o'tilgan ishlar qatori so'zning semantik strukturasi konnotativ semaning ekspressivligini, estetik ta'sirchanligini yozuvchining so'z qo'llash, she'riyl san'atlar yaratish mahorati bilan tavsiflash orqali chegaralanadi. Chunki, ko'pincha, tadqiqotchilar lingvopoetik tahlil jarayonida mazkur holatni bosh omil hisoblaydilar. SHuning uchun til vositalarining asarning umumiy g'oyasiga, yozuvchining badiiy niyatiga qay darajada bog'liqligi masalasi, ya'ni xususiylikning umumiylikka tomon siljishi, shakl va mazmun birligiga erishish masalasi to'liq yoritilmay qolgan. Bunday bo'lishi tabiiyl, chunki shu kungacha olib borilgan lingvopoetik tadqiqotlarda bu masalaga unchalik jiddiy e'tibor qaratilmagan edi. Lekin ushbu tadqiqotning avvalgilaridan farqli ravishda lingvopoetik tahlil bo'yicha ancha mukammallikka erishganini alohida e'tirof etish mumkin.

So'nggi yillarda she'riyl asarlar lingvopoetikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan yana biri D.SHadievaning «Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi» mavzusidagi nomzodlik ishidir. Ushbu izlanishda badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan o'rganish ancha takomillashgani seziladi. Tadqiqotchi Muhammad Yusuf she'riyatining leksik-semantik xususiyatlarini, maqol va iboralarni, takror hamda okkazionalizmlarni lingvopoetik jihatdan tahlil etgan. SHunday bo'lsa-da, tadqiqot yuqoridagi ishlarda ko'rsatilgan ayrim kamchiliklardan holi emas. Misol uchun badiiy takror tahliliga e'tibor qilaylik:

«O'tgan kuning – o'tkan kundir,

O'z boshingga yetgan kun.

Qodiriyni bergan zamin

Qodiriyni sotgan kun. («Vatanim»)

Birinchi misradagi *o'tgan kun* birikmasiga dastlab egalik qo'shimchasi, takrorda bog'lama sifatida kelgan –*dir* qo'shimchasining qo'shilishi gapni yuzaga keltirgan. Grammatik o'zgarish bilan yuzaga kelgan takrorda gapning yuzaga kelishi she'riyatda kam uchraydi. SHoirning mahorati shundaki, ushbu birikma orqali keyingi misradagi g'oyaga yo'l ochadi va takrordagi mantiqiylikni davom ettiradi.

O'tkan kun va *Qodiriy* takrorlari so'z o'yini va talmeh san'atiga asos bo'lgan. Keyingi takror ishtirokida antiteza, ya'ni qarshilantirish (*Qodiriy*ni bergan – *Qodiriy*ni sotgan) yuzaga kelgan deb hisoblash mumkin»⁵⁷.

Bunda ko'rib turganingizdek, lingvopoetik tahlil shakl va mazmun birligi asosida hamda takror orqali ifodalangan xususiy mazmun asarning umumiy g'oyasiga qay darajada xizmat qilganligi to'liq izohini topmagan. Zero, muallifning hayot haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy-ma'naviy muammolar haqidagi hukm va xulosalari kitobxonga til orqali yetkazilishi⁵⁸ tadqiqotchining e'tibor markazidan chetda qolgan.

A.Qahhor personajlarning tashqi qiyofasini tasvirlashda ham metaforalardan unumli foydalangan:

– *Ozibmanmi, qorayibmanmi?* – dedi.

– *Yo'q, juda joyida... Mayiz bo'libsani...* («Asror bobo»).

Berilgan jumladagi mayiz leksemasi metaforik ma'noda qo'llangan bo'lib, uning semem strukturasi quyidagicha:

mayiz – a) uzumning quritilgan holati (quruq meva); b) burushiq holatda; v) qora ranglili; g) mazali, yoqimli; d) umrning so'nggi holati va h.k.

Bunda **a** sema *mayiz* leksemasining genetik semasi hisoblanadi. Metaforik hosila ma'noning yuzaga chiqishida **b, v, g, d** semalar asos bo'lib xizmat qilgan. Yozuvchi inson fenomenining tashqi qiyofasini tasvirlashda o'ziga xos yo'l tutadi. Ya'ni Asror boboning hayot qiyinchiliklariga chap berib kelayotgan jussasini, yolg'iz yodgori – o'g'lining xasratida ozib qoraygan, ajin tushgan yuzini obrazli

⁵⁷ SHadieva D. Ko'rsatilgan nomzodlik dissertatsiyasi. – B. 80.

⁵⁸ SHarafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1986 yil 5 sentyabr.

tasvirlashda *mayiz* leksemasini ijobiy konnotativ maqsadda qo'llab, qahramonning salbiy ko'rinishga ega bo'lgan holatini yoqimli ifodalaganki, beixtiyor kitobxonda Asror boboning qiyofasiga nisbatan iliq tuyg'ular paydo bo'ladi, qahramon dardini o'z qalbida tuyadi.

Ma'lumki, ijodkorlar personajlarning tashqi ko'rinishidagi salbiy holatlarni ifodalash uchun salbiy konnotativ ma'nodagi metaforalarni qo'llaydilar, ijobiy holatlarni ifodalash uchun esa aksincha, ijobiylik bo'yog'iga ega bo'lgan metaforalarni ishlatadilar. A.Qahhor metaforalarining o'ziga xosligi shundaki, qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlashda, uning ichki dunyosi, hulq-atvorini hisobga oladi, natijada salbiy holat ijobiy tus oladi. Demak, yozuvchi *mayiz* leksemasi orqali qahramonning ichki ruhiy olami bilan bog'liq holda uning tashqi qiyofasini umumlashtiruvchi metaforik obrazli ifoda yaratib, o'zining takrorlanmas uslubini namoyon eta olgan. Bulardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, A.Qahhorning portret yaratish manerasida metaforalardan foydalanish mahorati A.Qodiriy uslubi bilan ma'lum darajada uyg'unlik hosil qiladi, biroq Oybek, G'.G'ulom ijodidagi portret yaratish uslubi bilan muqoyasa qilganimizda ularning bir-biridan keskin farq qilishining guvohi bo'ldik. Oybek va G'.G'ulom personajning tashqi qiyofasini tasvirlashda metaforaga nisbatan o'xshatishlardan, ba'zan jonlantirishdan unumli foydalangan. Masalan:

«Mirzakarimboyning gavdasi kichik, qo'llari ingichka bo'lsa ham, zuvalasi pishiq ko'rinadi. U go'shtdor ham emas, oriq ham emas, kichik ayyor yuzi xo'rozning tojisiday qip-qizil; oppoq soqoli va miyig'lari toza va taralgan» («Qutlug' qon»).

«Eshon dokani tortib olishi bilan hayhot na ko'zi bilan ko'rsin, Rokiya qiz o'rnida iylanmagan jiq teri, saksonlardan oshib, og'zida tish balosi qolmagan mukka kampir» (G'.G'ulom. «Elatiyada bir ov»).

Keltirilgan matn fragmentlarida personajlarning tashqi qiyofasini tasvirlashda batafsillik, keng ko'lamlilik ustivor (Ularda personajlarning tashqi qiyofasi bilan ichki ruhiy dunyosi dialektik birlikda ifodalanmagan). Mirzakarimboy qanchalik xasis, razil, pastkash inson bo'lmasin, uning tashqi qiyofasini tasvirlashda yozuvchi

ijobiy detallardan foydalangan. G'.G'ulomning esa hikoya personaji Sarvar ammaning tashqi qiyofasini tasvirlashdan bosh maqsadi Eshonning komik holatini ifodalashdan iboratdir. A.Qahhor esa personajning tashqi qiyofasini tasvirlashda *mayiz* leksemasidan metaforik ma'noda foydalanar ekan, nafaqat lokonizmga erishgan, balki qisqa jumlada teran ma'no ifodalab, personajning tashqi va ichki ruhiy olamidagi o'zgarishlarni dialektik birlikda ifodalash bilan o'zining qahhorona uslubini yarata olgan. Demak, A.Qahhor qahramonlar tashqi qiyofasini qisqa, aniq, obrazli ifodalashda metaforadan foydalanar ekan, ular nihoyatda o'ziga xosligi, muayyan personaj haqida to'liq tasavvur berish kuchiga egaligi bilan xarakterlidir.

Hikoyalarda xayoliy mavjudodlarni atovchi otlar ham yozuvchining ideolektiga xos konnotativ maqsadlarni yuzaga chiqarishda ta'sirchan omil bo'lib xizmat qilgan: *Otam o'lmaganda men bu alvastiqa bir kun ham xotin bo'lmas edim* («Maston»).

Berilgan matn fragmentida *alvasti* leksemasi metaforik ko'chma ma'no hosil qilgan. *Alvasti* leksemasining semem strukturasi quyidagicha:

Alvasti – a) xayoliy mavjudod; b) jirkanch; v) ko'rimsiz, badbashara; g) ma'naviy tuban; d) yovuz, shavqatsiz.

Alvasti leksemasining atash semasi **a** ("hayoliy mavjudod") chetlashtirilgan. Natijada qo'shimcha **b, v, g, d** ifoda semalarining bo'rttirilishi hisobiga metaforik hosila ma'no yuzaga chiqqan. Yozuvchi *alvasti* leksemasini salbiy konnotativ ma'noda qo'llab, baholanuvchi ob'ektga nisbatan hikoya personaji Turg'unoyning nafratini, adovatini ifodalashga erishgan va bu orqali yozuvchi Turg'unoyning uydan ketish sababiga ishora qilgan. Shu yerda A.Qahhorning metaforadan foydalanish mahoratining yangi qirrasini namoyon bo'ladi, ya'ni hikoyani o'qir ekanmiz, hech bir o'rinda Turg'unoyning uydan ketish sababi ko'rsatilmaydi, ortiqcha izoh berilmaydi, balki yozuvchi ana shu illokutiv maqsadini *alvasti* leksemasida implitsit tarzda ifodalab, o'zining original uslubini yaratadi. Demak, A.Qahhor ot-metaforadan shaxs fenomenining ichki yoki tashqi qiyofasini tasvirlashdan tashqari, yashirin tarzda ifodalangan matn presuppozitsiyasi (tagmatn)ga ishora qiluvchi pragmemma sifatida ham foydalangan.

Badiiy matn shakli va mazmunini tushuntirish borasida gap borganda, har bir yozuvchi yoki shoir ijodini har tomonlama aniq o'quvchiga yetkazish uchun unda qo'llanadigan so'zlarning ma'noviy jihatlariga jiddiy qarash, personaj yaratish bo'yicha ular qo'llagan so'z san'atiga xos ma'no nozikliklarini teran ilg'ay olish talab etiladi. Asar matni shu tarzda o'quvchiga yetkazilsa uning tushunishi va undan to'g'ri xulosa chiqarishiga ham katta zamin yaratilgan bo'ladi.

Bob bo'yicha qisqa xulosa:

Badiiy ijodda doimiy ravishda denotatlardan foydalanish har kuni bir musiqa eshitaverib(boshqa musiqa chalishni bilmaydigan kishidan) zerikkan holatga qiyoslanadi. Bundan zerikmaslik, zeriktirmaslikning asosiy yo'li – so'zlarning rangbaranglik asosida terilishi, o'quvcida har bir satr o'zgacha ruhiyat paydo qilishga xizmat qilishi kerak. Bu ijodkordan katta tajriba va mahorat talab etadi. Ayrimlar ijodiga nazar tashlanganda? Bu masalaning nihoyatda me'yor darajasida qo'llanganiga guvoh bo'lishi ba'zi asarlarda esa bu me'yorga bir oz yetinqiramayroq qolgani kuzatiladi. Buni lirik, epik asarlar talqinida uchratish mumkin.

O'quvciga til va adabiyot darslari davomida mazmun-mohiyati jihatidan tushuntirib borilishi asarni chuqur va to'liq o'qib chiqishga qiziqishini ortishiga, mazmunini o'zlashtirib olishiga katta yordam beradi.

Yozuvchi, adib xoh tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda qalam tebratmasin, tarixiy qatlamga oid leksik birliklardan voqelikka davr ruhini berish orqali xalqchillikni ta'minlash, personajlarning harakter-xususiyati, nutqini individuallashtirish, badiiy matnga ko'tarinkilik bag'ishlash kabi uslubiy maqsadlarda foydalanganligini bilib olish imkoni paydo bo'ladi.

UMUMIY XULOSA

Yuqori sathga doir har qanday til birliklari denotativ tomondan ob'ektiv borliqdagi ma'lum harakat, narsa va hodisalarni ifodalaydi. Ya'ni ob'ektiv borliqdagi narsa, harakat va hodisalar (denotat) kishi ongida aks etadi (konnotativ) va ongda aks etgan bu tushunchalar ma'lum tovush qobig'i (so'z) yordamada ifodalanadi. Demak, so'zlar ob'ektiv borliqdagi narsa, hodisa va harakatlarni bevosita emas, balki ong orqali aks ettiradi.

SHuningdek, imo-ishoralar ham ongda ma'lum ma'noga xoslanadi. Ya'ni ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisa (harakat, holat ham) ongda aks etadi va u imo-ishora orqali bayon qilinadi. Demak, bu jihatdan, so'z ham, imo-ishora ham bir xil vazifa bajaradi, har ikkisi ham belgidir.

Konkret nutq vaziyatida ma'lum bir ma'no ifodalovchi imo-ishoralar shu nutq vaziyatini qayta hikoya qilib berish jarayonida ma'lum lingvistik birliklar yordamida tasvir qilinadi. Demak, har bir tilda imo-ishoralarni ifodalovchi bir qator fe'llar mavjud. Mazkur fe'llar semantik tomonidan **ishora fe'llari** deb yuritiladi. Masalan, *ko'z qisdi*, *labini burdi* va boshqalar.

Insonning mimikalari, qo'l harakatlari tabiiy va shartli xarakterga ega. Masalan, labga qo'ngan pashshani haydash uchun qilingan lab harakati yoki qo'l harakati tabiiy harakatdir. Chunki bu harakatlar tinglovchi uchun ham hech qanday axborot bermaydi.

Tinglovchiga qarab turib pastki labning bir marta o'ngga (ba'zan chapga) silkinishi uning bu yerdan chiqib ketish kerakligini bildiradi. Demak, ma'lum axborot beradi. SHuning uchun mazkur harakat shartli xarakterga egadir.

SHartli xarakterga ega imo-ishoralar belgi vazifasini bajaradi. Faqat belgi vazifasini bajaradigan imo-ishoralargina paralingvistik birliklar hisoblanadi.

Imo-ishoralar ham ba'zan ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Uning qaysi ma'noda ishlatilayotgani nutq vaziyati orqali bilinadi. Masalan, **ko'z qisish** harakati quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. *Qumriniso Sobiraxonga ko'z qisib:*

– *O'yin-kulgimizning boshi Bahrixonning to'yi bo'ladi, – dedi.*

(A.Qahhor)

– *Qizini shunday odamlarga bergan qaynonalar yog' yeb, sharbat ichsalar kerak, – dedi mulla Sulaymon Aniqulga ko'z qisib.*

(SH.Rashidov)

2. Men kulib yuborgan edim, sherigim turtib, ko'z qisdi.

(A.Qahhor)

3. Ular anchadan beri bir-biri bilan ko'z qisishib yurar ekan.

(«O'zbek xalq ertaklari»)

4. Qalandarov juda xijolatli bir marosimni o'tkazayotganday qip-qizarib, iljayib, ko'zi ko'ziga tushgan odamga «mayli, qo'ya ber, ahamiyati yo'q» degan ma'noda ko'z qisib tikka turar edi.

(A.Qahhor)

Ko'z qisish birinchi misolda «hazil», ikkinchi misolda «kulma» ma'nolarida, uchinchisida «kelishish», to'rtinchisida esa «ahamiyati yo'q» ma'nolarida ishlatilmoqda. Yoki **bosh chayqash** harakati quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Hayron qolish. Masalan:

Saida bu odamdan har nima kutish mumkin deganday bosh chayqadi. (A.Qahhor)

2. Qoyil qolish. Masalan:

Saida uning maqtovlariga juda ahamiyat berib, «Umidaga qoyil» degan ma'noda bosh chayqab quloq berar ekan: «Qani endi mana shunaqa uquvli, epchil, g'ayratli odamlar byuroda ko'proq bo'lsa!» dedi. (A.Qahhor)

3. Rohatlanish. Masalan:

Kamolxonov nonni bir iloj qilib yedi va mazza qilganiga ishoraqilib bosh chayqadi. (A.Qahhor)

4. Afsuslanish. Masalan:

Usta Hazratqul achchiq ma'nosida boshini chayqadi. (SH.Rashidov)

Ayrim paralingvistik vositalar ma'lum bir xalqning muomala qoidalari bilan bog'liqdir. Jumladan, ta'zim qilish, qo'lini ko'ksiga qo'yish, qo'l qovushtirish o'zbek, tojik xalqlari o'rtasida tarqalgan.

Masalan: **G'ulomjon o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib ta'zim qildi: – Jonim bilan.**

(M.Ismoilij)

Xotamova mamnuniyatdan qizarib, ta'zim qildi: – Qadamlaringizga hasanot!

(A.Qahhor)

Madaminxo'ja o'tirgan yeridan xiyol qo'zg'aldi-yu, qo'l qovushtirdi: – Xush kelibsizlar. (M.Ismoilij)

Tildagi lingvistik birliklarning davrlar o'tishi bilan o'zgarish jarayoni ro'y berganidek, paralingvistik birliklarda ham ana shunday o'zgarish sodir bo'lishi – ayrimlarining eskirib iste'moldan chiqishi va denotatlar konnotat yoli aksincha bo'lib, yangi vositalar kirib kelishi, qo'llanishlar ham o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Masalan, o'zbek va tojik xalqlari o'rtasida ilgari qo'lini ko'ksiga qo'yish bilan salomlashish odati hozirgi davrda ko'proq bosh silkitish bilan ifodalanmoqda.

Yuqorida aytilganlardan ma'lumki, badiiy matn tahlil qilinayotganda yoki uni bevosita mutolaa qilish jarayonida o'rganayotganda faqat uning leksikologik boyligi va grammatik qurilishinigina emas, balki lingvistik vositalarini, paralingvistik, ekstralingvistik tomonlarini ham o'rganish mazkur tilimizning boyligini ko'rsatibgina emas, uning saqlanishi va boyib borishini ham o'zida mujassam etishga yordam beradi, o'z ona tilimizni yanada boy holda kelajak avlodga yetkazib berish imkoni kengayadi.

Xullas, informema va pragmemalar lingvistik konnotatsiyaning asosiy birliklari sifatida o'z doirasiga presuppozitsion xabar, propozitsiya, yig'iq va yoyiq tasviriy mazmunni qamrab olib, bular nutqda sintaktik birliklar orqali namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B. 86

1. Arutyunova N.D. Ponyatie propozitsii v logike i lingvistike. //Izv. AN SSSR. Ser.lit. i yazyka. -1976. -T.35. -№1. -S.46-54.

2. Arutyunova N.D., Paducheva Ye.V. Istokn, problemm i kategorii pragmatiki. V kp.: NZL. V'sh. XVI. M" 1985,s.7.

3. Zikrillaev G.N. Fe'llning shaxs-son va hurmat kategoriyalari sistemasi. - Toshkent: Fan, 1990. - 112 b.

4. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususiyatlari: Filol.fan.dokt.diss. avtoref.-Toshkent, 1993.49 b.

5. Karimov S.A. O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol.fanlari doktori diss... avtoref. - Toshkent, 1993, - 50 b.

6. Kolshanskiy G.V. Kontekstnaya semantika. -M.: Nauka, 1980. - 149 s.

7. Lutfullaeva D. Tasdiq gaplarda inkor va shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik. Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. -Toshkent, 1997. - 26 b.

8. Mamadaliyeva M. O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti: Filol.fanlari nomzodi ... diss. avtoref. -Toshkent, 1998. -29 b.

9. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. - Toshkent, 1989. -132 b.

10.Maxmudov N. Presuppozitsiya va gap. //O'zbek tili va adabiyoti, -1986. -№6. - B.28-31.

11.Maxmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). -Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 232 b. №5. -B.64-66.

12.Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fanlari doktori ... diss.avtoref. -Toshkent, -2000. - 57 b.

13.Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992. - 296 b.

14.Rahmatullaev SH. Leksema va frazema ma'nosini komponent tahlilining ba'zi natijalari. //O'zbek tili va adabiyoti. -1986. -№3. -B.16-21.

- 15.Serly Dj.R. Chto takoe rechevoy akt? //Novoe v zarubejnoj lingvistike: Teoriya rechevyyh aktov. -M., 1986. -Выр. XVII. - S.151-169.
- 16.Stolneyker R.S. Pragmatika. //Novoe v zarubejnoj lingvistike. -M., 1985. - Выр. XVI. - S.419-439.
- 17.Tohirov Z. O'zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo'lishi va ularda sub'ektiv munosabatning yuzaga chiqishi. Filol.fanlari nomzodi ... diss.avto-ref. - Toshkent, 1994. -29 b.
- 18.Shamsiddinov H. So'zlarning evfemik funktsional-semantik sinonimlari. //O'zbek tili va adabiyoti. -1977. -№6. -B.22-24.
- 19.O'zbek tilining izohli lug'ati. -T.I. - M.: Rus tili, 1981. - 632 b.
- 20.O'zbek tilining izohli lug'ati. - T.II. - M.: Rus tili, 1981. - 716 b.
- 21.Qo'ng'urov R. Sub'ektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. -Toshkent: O'qituvchi, 1980. - 161 b.
- 22.Qo'chqorto'ev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. -Toshkent, Fan, 1977 -168 b.
- 23.Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi ... diss. -Toshkent, 1994. -168 b.
- 24.Hamroev M.A. Hozirgi o'zbek tilidagi ko'rsatish olmoshlarining funktsional semantik xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi ... diss. avto-ref. -Toshkent,1996-25 b.
- 25.Hojaliev I. Tasvir nutq tipining lingvistik xususiyatlari. Filol.fanlari nomzodi diss.avto-ref. -Toshkent, 1998. - 26 b.
- 26.Hojieva H.Ya. O'zbek tilida hurmat maydoni va uning tuzilishi. //Istiqlol va ona tili qurilishi talqini hamda tahlili. -Buxoro, 1998. -B.102-107.
- 27.Hojieva H. Otning hurmat kategoriyasi. //O'zbek tili va adabiyoti. - 2000. -№1. -B.27-29.
- 28.Hojieva H. Kishilik olmoshi va hurmat ma'nosi. //O'zbek tili va adabiyoti. - 2000. -№4. -B.37-38.
- 29.Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -Toshkent, O'qituvchi, 1985. - 144 b.

30.Hozirgi zamon o'zbek tili. /Faxri Kamol tahriri ostida. -Toshkent, Fan, 1957. - 526 b.

31.Hoshimov A. Leksemalarni maydonlarga bo'lish tamoyillari. //O'zbek tili va adabiyoti. - 1999. -№5. -B.62-63.

BADIIY MANBALAR:

1. Abdulla Qahhor. Qissalar. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1977.
2. Abdulla Qodturiy .O'tkan kunlar. G'afur G'ulom nashriyoti.1967.
3. Aytmatov Ch. Erta kelgan turnalar. Фафур Фулом nomidagi adabiyot va san'at нашриёти. 1982 .
4. Oybek.Navoiy. "Sharq" matbaa konserni. 1995 y. va boshqalar.
5. E.Vohidov. Muhabbatnoma.Sadoqatnoma. Asarlar to'plami. G'Gulom nashriyoti. T.1986.Saylanma.
- 6.

